

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI  
“IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT ” KAFEDRASI**

**«Himoyaga ruxsat etildi»**

**Kafedra mudiri**

**Prof.B.A.Xasanov**

\_\_\_\_\_2016 yil  
«\_\_\_\_»\_\_\_\_\_

**MAVZU: «MOLIYAVIY NATIJALAR TAHLILI VA AUDITI»**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**ILMIY RAHBAR:**

**Kata o'qituvchi**

\_\_\_\_\_

**BAJARDI: «Buxgalteriya hisobi va audit»  
ta'lim yo'nalishi BRU- rypyx**

\_\_\_\_\_

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o'tdi \_\_\_\_\_sonli bayonnoma

«\_\_\_\_»\_\_\_\_\_2016 yil.

**TOSHKENT – 2 0 16**

## MUNDARIJA:

<b>Kirish</b> .....	3
<b>1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar tahlili va auditini tashkil etishning nazariy asoslari</b> .....	7
1.1. Moliyaviy natijalar hisobi va tahlilini tashkil etishning maqsad va vazifalari.....	7
1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar auditining mohiyati va ahamiyati.....	11
1.3. «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalarni hisobga olishning me'yoriy-huquqiy asoslari.....	15
<b>2-Bob. «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalar hisobi va tahlilining amaliy holati</b> .....	22
2.1. “Odil-audit” MCHJda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi va tahlili.....	22
2.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish.....	32
2.3. “Odil-audit” MCHJda moliyaviy natija ko'rsatkichlarini umumiy tahlil qilish tartibi.....	37
<b>3-Bob. “Odil-audit” MCHJda moliyaviy natijalar auditi va ularni takomillashtirish</b> .....	45
3.1. Moliyaviy natijalar auditi rejasini tuzish va tashkil etish.....	45
3.2. “Odil-audit” MCHJda moliyaviy natijalar auditini o'tkazish tartibi.....	48
3.3. Moliyaviy natijalar auditining natijalarini umumlashtirish, hisobot va xulosa yozish.....	58
<b>Xulosa va takliflar</b> .....	67
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....	69

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillikka erishganimizdan boshlab mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ular uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi me`yoriy-huquqiy hujjatlar hozirgi iqtisodiy taraqqiyotning asosi bo`ldi desak xato qilmagan bo`lamiz. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta`kidlaganidek, “2015-yilda amalga oshirgan keng ko`lamli, uzoqni ko`zlagan islohotlarni hayotga tatbiq etish erkin tadbirkorlikka keng imtiyoz va preferensiyalar yo`lini ochib berish, investitsiyalar, avvalo, chet el investitsiyalarining hajmini oshirish va joriy etish iqtisodiyotimizning barqaror o`sinh sur`atlarini va uning makroiqtisodiy mutanosibligini ta`minlash bo`yicha o`z ijobiy ta`sirini berdi.”<sup>1</sup>

O`zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash korxonalar faoliyatini tubdan is-loh qilish, ularni yuzaga kelgan yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida rivoj-lanishini ta`minlash, mamlakatda kichik va o`rta tadbirkorlikni rivojlantirish kor-xonalarning moliyaviy barqarorligiga uzviy bog`liq. Korxonalarning moliyaviy jihatdan barqaror bo`lishi ularning faoliyati davomida olgan foydasining to`g`ri shakllantirilishi bilan bog`liq. Chunki korxonalarda foyda shu yerda ishlov-chilarning moddiy ta`minlanishining, korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishning, ishlab chiqarishda fan-texnika yutuqlarini va yangi texnologiyalarni joriy qilish kabi ishlarning asosiy moddiy manbasi hisoblanadi.

Shunday ekan, moliyaviy natijalar haqida to`g`ri va ishonchli ma`lumotlar o`z iste`molchilari uchun muhim ahamiyat kasb etishi barchamizga ma`lum. Bunday ma`lumotlarga ega bo`lish uchun albatta korxonalar moliyaviy natijalarini respublikada belgilangan qonun-qoidalar, me`yoriy tartiblar va o`z hisob siyosatlari doirasida o`z vaqtida aniq va to`g`ri shakllantirishlari talab etiladi.

Jahon amaliyotiga e`tibor bersak, moliyaviy hisobda moliyaviy natijalar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko`ramiz. Bunga sabab hamma axborot iste`molchilarining e`tiborini o`ziga qaratadigan ma`lumot, bu subyektlar fao-

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o`zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo`l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. “Xalq so`zi” gazetasi, 2016 yil 16 yanvar, № 11 (6446).

liyatining moliyaviy natijasi hisoblanadi. Ushbu natijaning shakllanishi va auditini jahon standartlariga javob beradigan shaklda ifodalash bo'yicha mamlakatimizda katta ishlar olib borilmoqda.

Bu esa yurtimizdagi shu soha olimlaridan ilmiy mushohada va kata mehmatalab qilmoqda. Bunday vaziyat nafaqat bizning yurtimiz, balki boshqa mamlakatlarning ham hisob tizimida mavjuddir. Shuning uchun ham, hozirgi kunda hisob tizimida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalari tahlili va auditini jahon tajribasidan kelib chiqib bozor munosabatlari talablariga javob beradigan tarzda ko'rib chiqishni talab etadi va o'z navbatida bu bitiruv malakaviy ishi mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

**Bitiruv malakaviy ishning o'rganilganlik darajasi.** Moliyaviy natijalar tahlili va auditini takomillashtirish bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlardan K.Druri, A.Sheremet, V.Paliy, N.Kondrakov, A.Arens, Dj.Lobbek, O.Nikolaeva va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan E.Ergeshev, N.Jo'raev, A.Ibragimov, M.Pardaev, M.To'laxodjaeva, B.Xasanov, R.Xolbekov va boshqa iqtisodchi olimlar ushbu mavzu yuzasidan o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning maqsadi - moliyaviy natijalar tahlili va auditini takomillashtirish bo'yicha nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun esa quyidagi vazifalar hal etilishi lozim:

- moliyaviy natijalar hisobi va tahlilini tashkil etishning maqsad va vazifalarini atroflicha o'rganish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar auditining mohiyati va ahamiyatini yoritib berish;
- «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalarni hisobga olishning me'yoriy-huquqiy asoslarini ochib berish;
- moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi va tahlilini tadqiq etish;
- «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natija ko'rsatkichlarini umumiy tahlil qilish

tartibini yoritib berish;

- moliyaviy natijalar auditi rejasini tuzish va tashkil etilishini o'rganish;
- moliyaviy natijalar auditi natijalarini umumlashtirish, hisobot va xulosa yozish tartibini tadqiq etish.

**Bitiruv malakaviy ishining obyekti bo'lib**, "Odil-audit" mas'uliyati cheklangan jamiyatining buxgalteriya hisobi faoliyati hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti bo'lib**, moliyaviy natijalar tahlili va auditini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari** quyidagilardan iborat:

- moliyaviy natijalar hisobi va tahlilini tashkil etishning maqsad va vazifalari atroflicha o'rganildi;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar auditining mohiyati va ahamiyati yoritib berildi;
- «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalarni hisobga olishning me'yoriy-huquqiy asoslari ochib berildi;
- moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi va tahlili tadqiq etildi;
- "Odil-audit" MCHJda moliyaviy natija ko'rsatkichlarini umumiy tahlil qilish tartibi yoritib berildi;
- moliyaviy natijalar auditi rejasini tuzish va tashkil etilishi o'rganildi;
- moliyaviy natijalar auditi natijalarini umumlashtirish, hisobot va xulosa yozish tartibi tadqiq etildi.

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asoslari.** O'zbekiston Respublikasining xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlari, Prezident I.A.Karimovning iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga oid farmonlari, mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari, Moliya vazirligining hisob tizimi uslubiyatiga doir me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalari tashkil etadi.

**Tadqiqot natijalarining amaliy va ilmiy ahamiyati.** Oliy ta'lim muassasalarida “Iqtisodiy tahlil” va “Audit” fanlari o'qitishda uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin. Bitiruv malakaviy ishida keltirilgan amaliy tavsiyalardan «Odil-audit» MCHJda buxgalteriya hisobini yuritishda uslubiy ko'rsatma sifatida foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## **1-Bob. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar tahlili va auditini tashkil etishning nazariy asoslari**

### **1.1. Moliyaviy natijalar hisobi va tahlilini tashkil etishning maqsad va vazifalari**

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ulkan iqtisodiy o'zgarishlar respublikamiz hisob tizimini ham o'z ichiga qamrab olmoqda. Ayniqsa, buxgalteriya hisobining milliy standartlarining amaliyotga tatbiq etib borilayotganligi bunda alohida ahamiyat kasb etadi.

Buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar doirasi ancha kengayib borayotganligi, integratsiya jarayonlari chuqurlashayotganligi, qo'shma korxonalar barpo etilayotganligi, jahon moliya bozoriga (qimmatli qog'ozlar birjalariga, xalqaro banklarga, fondlarga va boshqalarga) chiqilayotganligi sarmoyalar, ishchi kuchi va valyutaning ayrim mamlakatlar o'rtasida erkin harakatlanishi zarurligi buxgalteriya hisobi tizimini jahon andozalariga ko'chirishni yanada qattiqroq talab qilmoqda. Qolaversa, buxgalteriya hisobi va hisobotini xalqaro talablarga muvofiq o'zgartirish keyingi vaqtlarda O'zbekiston uchun ham tobora dolzarb vazifaga aylanmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida respublikada xalqaro andozalarga to'la-to'kis mos keluvchi buxgalteriya hisobining milliy andozalari ishlab chiqilgan va amaliyotga keng tatbiq etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganligi munosabati bilan qisqa davr ichida respublikamiz iqtisodini yuksaltirish uchun bir qator iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat qurish va uni rivojlantirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va siyosiy shart-sharoitlar yaratildi.

Eng muhimi shuki, mustaqillikning dastlabki yillari respublikamizning o'z taraqqiyot yo'lini faol izlash, Vatanimizni erkin, kuchli va ravnaq torayotgan diyorga aylantirishga intilish davri bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishishida, iqtisodiy strategiyani amalga oshirish uchun, eng avvalo, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish va unga o'tishning strategik yo'nalishini belgilab olish muhimdir.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizga bozor elementlari va xalqaro tajribalarning tadbiq etilib borishi barcha xo'jalik mexanizmini takomillashtirishni va uni axborot ta'minotining asosi bo'lgan moliyaviy hisob va tahlil sohasida tub islohotlarni o'tkazish zaruriyati yuzaga keldi.

Ma'lumki, yaqin yillargacha hisob tizimi faqatgina xo'jalik muomalalarini qayd qilish va hisob hujjatlarini saqlash vositasi bo'libgina xizmat qilardi. Bu, albatta, ma'muriy-buyruqbozlik davriga xos bo'lgan elementlardan biri edi.

Bozor munosabatlariga o'tish esa buxgalteriya hisobining haqiqiy vazifalarining naqadar serqirra ekanligini yanada kengroq ochib berdi. Birinchidan, buxgalteriya hisobi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishning ajralmas bo'lagiga aylandi. Ikkinchidan, turli xil foydalanuvchilarni buxgalteriya axborotlari bilan ta'minlash markaziy masalalardan biriga aylandi. Va, nihoyat, zamonaviy buxgalter faqatgina hisob ishlarini yuritibgina qolmay, balki buxgalteriya ma'lumotlarini tahlil qilish, korxonada iqtisodiy holatini tavsiflovchi turli xil koefitsientlarni hisoblash, xo'jalik jarayonlariga baho berish, korxonada istiqbolini belgilay olishi kerak. Bundan tashqari malakali zamonaviy buxgalter auditorlik faoliyati bilan shug'ullana olishi kerak.

Hozirgi iqtisodiyot erkinlashtirish sharoitida korxonaning iqtisodiy hamda moliyaviy salohiyati va holati to'g'risidagi ma'lumotlar yetakchi bo'lib, foydalanuvchilarning turli toifalari: ta'sischi, aksiyador, kreditor, investor, mol yetkazib beruvchilar va boshqalar manfaatlarini qamrab oladi. Bunda foydalanuvchilarning har bir toifasi korxonada moliyaviy holatini baholashda o'z manfaatlaridan kelib chiqadi va o'z mezonlariga amal qiladi.

Respublikamizda moliyaviy hisobni tartibga solish uchun mustahkam qonunchilik tizimi tashkil etildi: jumladan, Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun (1996 yil, 30 avgust), «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» (1999 yil, 5 fevral), «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» (1998-2003 yil) va boshqa me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Natijada qator iqtisodiy muammolar hal etildi.



Moliyaviy natijalar – bu xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum hisobot davrida tadbirkorlik faoliyati jarayonida o'ziga qarashli mablag'ning oshishi yoki kamayishidir. Buxgalteriya hisobida bunday faoliyat natijasi hisobot davridagi barcha foydalar va zararlarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi.

Foyda moddiy ishlab chiqarish sohasida tadbirkorlik faoliyati jarayonida yaratiladi. Ishlab chiqarish omillari (mehnat, karital va tabiiy resurslar) va xo'jalik yurituvchi subyektlarning foydali ishlab chiqarish faoliyati birikishi natijasida mahsulot ishlab chiqariladi, u iste'molga sotilganda, tovar bo'lib hisoblanadi.

Tovar-pul munosabatlari sharoitida korxonada darajasida sof daromad foyda shaklini oladi. Tovarlar bozorida korxonalar nisbatan alohida tovar ishlab chiqaruvchi bo'lib maydonga chiqadilar. Bozorda mahsulotga narx belgilab, uni iste'molchilarga sotadilar. Sotish natijasida ular pul tushumini oladilar, bu esa daromad olinganligini anglatadi. Moliyaviy natijani aniqlash uchun tushumni ish va xizmat ko'rsatishga ketgan xarajat bilan taqqoslash kerak.

Agar tushum xarajatlardan yuqori bo'lsa, moliyaviy natija foyda olinganligidan dalolat beradi. Tadbirkor doimo foyda olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, lekin bunga doim ham erisha olmaydi. Agar tushum xarajatlarga teng bo'lsa, unda faqat ish va xizmat ko'rsatish va sotish xarajatlari qoplangan bo'ladi, xolos. Bunda zarar ko'rilmaydi, lekin ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va ijtimoiy rivojlanishning manbai sifatidagi foyda ham olinmaydi. Agar korxonada xarajatlari tushumidan ko'p bo'lsa, u zarar ko'radi, ya'ni salbiy moliyaviy natijaga erishadi. Bu holat uni ancha murakkab moliyaviy ahvolga solib qo'yadi.

Foydani bozor munosabatlarning o'ta muhim kategoriyasi sifatida talqin etish mumkin.

1.Foyda korxonada faoliyati natijasida olingan iqtisodiy samarani xarakterlaydi. Lekin yagona foyda ko'rsatkichi yordamida korxonada faoliyatining barcha tomonlarini baholab bo'lmaydi. Bunday universal ko'rsatkichning bo'lishi ham mumkin emas. Aynan shuning uchun korxonaning ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy faoliyatini tashkil qilishda ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Foydaning ahamiyati shundan iboratki, u yakuniy moliyaviy natijani aks ettiradi,

shu bilan birga uning miqdori va o'zgarishga korxonaning xarajatlariga bog'liq bo'lgan hamda bog'liq bo'lmagan omillar ta'sir qiladi. Foyda rag'batlantiruvchi funksiyasini bajaradi. Buning mazmuni shundan iboratki, foyda bir vaqtning o'zida moliyaviy natija va korxonaning moliyaviy resurslarining asosiy elementi hisoblanadi. O'z-o'zini moliyalashtirish tamoyilining real ta'minlanishi olingan foyda bilan belgilanadi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin korxonaning ixtiyorida qoladigan sof foyda korxonaning ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishni, korxonaning ilmiy-texnik va ijtimoiy rivojlanishini, xodimlarni moddiy rag'batlantirishni moliyalashtirish uchun yetarli bo'lishi kerak.

2. Foyda turli darajadagi byudjetlarni rag'batlantirish manbalaridan biri bo'lib hisoblanadi. U soliqlar ko'rinishida byudjetlarga kelib tushadi va boshqa daromad tushumlari bilan bir qatorda ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishni moliyalashtirish, davlat tomonidan o'z faoliyatini bajarishni ta'minlash, davlatning investitsiya, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va ijtimoiy dasturlarini amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida foydaning ahamiyati juda katta. Foyda olishga intilish tovar ishlab chiqaruvchilarni iste'moliga kerak bo'lgan ish va xizmat ko'rsatish hajmlarini oshirishga, ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlarni kamaytirishga undaydi. Erkin raqobat sharoitida bu orqali nafaqat tadbirkorlarning maqsadiga, balki ijtimoiy ehtiyojlar qondirilishiga ham erishiladi. Zararlarning ham o'z o'rnini bor. Ular mablag'larni yo'naltirishda, ishlab chiqarishni tashkil qilishda va mahsulotni sotishdagi xatolarni yoritib beradi.

Foydaga iqtisodiy kategoriya sifatida qaraganda, u haqda abstrakt holda gapiriladi. Lekin korxonaning xo'jalik va moliyaviy faoliyatini rejalashtirishda hamda baholashda, korxonaning ixtiyorida qolgan foydani taqsimlashda foydaning aniq ko'rsatkichlari ishlatiladi. Foyda bu korxonaning mahsulot sotishdan olingan foydasi (zarari) bilan ish va xizmat ko'rsatish va sotish bilan bog'liq bo'lmagan foydalari (zararlari) yig'indisidir. Mahsulot sotish deyilganda, nafaqat, natural-moddiy shaklga ega bo'lgan ishlab chiqarilgan tovarlarni sotish, balki ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish ham tushuniladi. Oxirgi moliyaviy natija sifatida

foyda korxonaning barcha xo'jalik operatsiyalarning buxgalteriya hisobi va balans moddalarini baholash asosida aniqlanadi. Foyda atamasining ishlatilishi shu bilan bog'liqki, korxonada ishining yakuniy moliyaviy natijasi uning chorak, yil yakuni bo'yicha tuziladigan balansida aks etadi.

Moliyaviy natijalarni buxgalteriyada hisobga olishning asosiy vazifalari quyidagilardir:

- moliyaviy natijalarning shakllanishi to'g'ri ekanligini o'rganish;
- olingan foyda miqdorini har oyda hamda yil boshidan o'z vaqtida va to'g'ri hisob-kitob qilish;
- moliyaviy natijalar bilan bog'liq operatsiyalarni va ularning taqsimlanishini buxgalteriya hisobi schyotlarida va tegishli registrlarda to'g'ri aks ettirish.

Moliyaviy natijalar tahlilining asosiy vazifalari:

- yilning sof foydasi hajmining o'zgarishiga baho berish;
- foydaning ko'paygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan va boshqa faoliyatlardan erishilgan natijaning ta'sir etishini aniqlash;
- foydaning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish;
- foyda hajmining ko'payishi yo'llari va omillarini belgilash va h.k.

## **1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy natijalar auditining mohiyati va ahamiyati**

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalashga asoslangan yangi iqtisodiy davr vujudga kelmoqda. Ushbu davrning xususiyatlari quyidagilardan iborat: ko'pmulkchilikning rivojlanishi, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan faoliyat turlarini erkin tanlash, talab va taklifning ustuvorligi, iqtisodiyotning egiluvchanligi, tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi, raqobatning mavjudligi, o'z-o'zini mablag` bilan ta'minlash tamoyiliga to'liq amal qilishlik. Hozirgi iqtisodiy sharoitda mavjud mulklardan ko'proq daromad olishni taqozo qiladi. Endilikda mulkka egalik qilish, undan foydalanish va tasarruf etish faqat samara

keltirishi kerak. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar va tashkilotlarning asosiy mezonini ham mulklardan samarali foydalanish tufayli olinadigan foyda bilan belgilanadi. Bunday natijaga qabul qilingan qonun-qoidalariga to'liq amal qilish orqali erishish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish va ularga xolisona baxo berish daxlsiz auditorlar va auditorlik tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan. Shu bois iqtisodiyotimizda auditorlik xizmati bozori vujudga kelgan. Auditorlar o'zaro tuzilgan shartnomalarga asosan turli mulkdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini ekspertizadan o'tkazadilar, noqonuniy operatsiyalarni aniqlash hamda korxonalar samaradorligini ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar beradilar.

O'zbekiston Respublikasida 2000 yil 26 mayda yangi taxrirda tasdiqlangan «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunning 2-moddasida auditorlik faoliyatiga quyidagicha ta'rif berilgan: «Auditorlik faoliyati deganda auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va boshqa shu bilan bog'liq professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi»<sup>2</sup>.

Audit va auditorlik faoliyati bo'yicha ayrim mutaxassis-olimlarning fikrlari maxsus adabiyotlarda quyidagicha ifodalangan. Buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi taniqli olim, prof. M. M. Tulaxodjaevaning fikricha «audit bu mustaqil malakali mutaxassislar tomonidan korxonaning moliyaviy hisobotini yoki u bilan bog'liq moliyaviy axborotlarni, bu hisobot yoki axborotning qonun va boshqa normativ hujjatlarga muvofiqlik darajasi to'g'risida xulosa chiqarish maqsadida tadqiq etilishidir»<sup>3</sup>. Shuningdek, prof. Podolskiyning fikricha auditorlik faoliyati buxgalteriya hisobotlarini, buxgalteriya hisobi hujjatlarini, soliq deklaratsiyalarini va boshqa moliyaviy majburiyatlarni tashqi tekshiruv o'tkazish bo'yicha tadbirkorlik ishi hisoblanadi<sup>4</sup>.

Turli mulkdagi korxonalarning faoliyatlari asosiy va aylanma mablag'larga bevosita bog'liqdir. Ushbu mablag'lar xo'jalik yurituvchi subyektlar tashkil

---

<sup>2</sup> «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2000 йил 26 май.

<sup>3</sup> To'lxodjayev M.M. Korxonalar moliyaviy ahvoli auditori. — T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1996. 6-bet.

<sup>4</sup> Podolskiy V.I., Polyak G.B., Savin A.A. Audit. — M.: YNITI, 2009. 5-bet.

qilingandan e'tiboran foydalaniladi va ko'paytirib boriladi. Xo'jalik mablag'larining muhim manbasi xususiy kapital hisoblanadi. Kapital o'z navbatida ustav kapitali, qo'shilgan kapital va zaxira kapitalidan tashkil topadi. Ushbu manbalar asosan korxonalar faoliyatidan olingan so'nggi moliyaviy natija, ya'ni foyda hisobidan ko'paytirilib boriladi. Shuning uchun ham korxonalar moliyaviy natijalari auditning muhim obyekti hisoblanadi.

Turli mulkdagi korxonalarning moliyaviy natijalari daromadlarga va harajatlarga bevosita bog'liqdir. Korxonalardagi mavjud resurslar samarali foydalanishi kerak. Aks holda, korxonalar faoliyatida yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun daromadlar, xarajatlar ularning turlari va kelib chiqish manbalari doimiy ravishda nazorat qilib boriladi.

Korxonalar faoliyati bo'yicha moliyaviy natijalarning auditorlik tekshiruvi jarayonida quyidagi me'yoriy hujjatlardan foydalaniladi:

- «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizom, 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (o'zgarishlar bilan).

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 24 yanvardagi 15, 2002— 12-sonli «Yuridik shaxslarning daromadi bo'yicha soliqlarni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi yo'riqnoma (o'zgarishlar bilan).

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to'ldirish qoidalari», Adliya vazirligidan 2003 yil 24 yanvarda 1209- son bilan ro'yxatdan o'tgan (o'zgarishlar bilan).

- O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 1996 yil 29 avgust 257—I-son (o'zgarishlar bilan).

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 2007 yil 27 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tasdiqlangan.

- «Buxgalteriya hisobi to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 yil 30 avgust.

- «Auditorlik faoliyati to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni. 2000 yil 26 may.

- O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat mulk qo`mitasi va Davlat soliq qo`mitasi tomonidan 2002 yil 25 martda 47, 10—1—48, 2002-33-sonli qaror bilan qabul qilingan «Xo`jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat tasarrufidagi aksiyalar bo`yicha dividendlarni hisoblash, to`lash va maqsadli foydalanish tartibi to`g`risida»gi nizom.

Moliyaviy natijalarning auditori ma`lum xususiyatlarga ega bo`lib, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

- moliyaviy natijalarning shakllanishi bir qancha ko`rsatkichlarga bog`liq;

- moliyaviy natija hisobot davridagi korxonada faoliyatining yakuni hisoblanadi;

- korxonaning foyda bilan ishlashi yoki hisobot davrini zarar bilan yakunlanishi moliyaviy natijalarni shakllantiruvchi ko`rsatkichlarga bevosita bog`liq bo`ladi;

- moliyaviy natijalarga oldindan aniq bo`lmagan xavf-xatarlar, tasodifiy xodisalar o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Moliyaviy natijalar auditidan maqsad buxgalteriya hisobida va hisobotida korxonada foyda va zararlari ishonchli aks etganligi, sof foyda qonuniy taqsimlanganligi va foydalanganligini aniqlashdir.

Moliyaviy natijalarni tekshirish uchun ma`lumot manbalari bo`lib quyidagilar hisoblanadi:

- Ta`sis hujjatlari, ta`sischilar majlisi bayonnomalari, buyruqlar, farmoyishlar.

- Dastlabki hujjatlar (kirim va chiqim kassa orderlari, to`lov qaydnomalari, chirtalar, schyotlar, to`lov torshiriqnomalari, ilova qilingan so`mdagi va Valyutadagi schyotlar bo`yicha bank ko`chirmalari, sotish, foyda va zararlari, soliqlar va yig`imlarni to`lash uchun foydadan foydalanish schyotlari bo`yicha hisob registrlari (qaydnomalar, jurnal-orderlar, mashinogrammalar).

- Bosh kitob, moliyaviy natijalar to`g`risida hisobot, alohida soliqlar bo`yicha hisob-kitoblar va boshqalar hisoblanadi.

- 9000-«Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari» ma`lumotlari.

- 8700-«Taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar» ma`lumotlari.

- 9100-«Sotilgan tovarlar tannarxi schyotlari» ma`lumotlari.

- 9200-«Asosiy vositalarning chiqib ketishi» ma`lumotlari.

- 9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi schyotlari» ma`lumotlari.

- 9400-«Davr xarajatlarning hisobi» ma`lumotlari.

- 9500-«Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari» ma`lumotlari.

- 9600-«Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlarning schyotlari» ma`lumotlari.

- 9700-«Favquloddagi foyda (zarar)lar hisobi schyotlari» ma`lumotlari.

- 9800-«Soliqlar va yig`imlarni to`lash uchun foydaning ishlatilishi hisobi schyotlari» ma`lumotlari.

- 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar» ma`lumotlari.

Moliyaviy natijalar auditining asosiy vazifalari quyidagilarga qaratilgan:

- moliyaviy natijalarning shakllanishi va to`g`ri hisoblanganligini tekshirish;
- foydaning to`g`ri ishlatilishini tekshirish;
- moliyaviy natijalarni buxgalteriya hisobi schyotlarida to`g`ri aks ettirilganligini aniqlash;
- moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotlarning asosliligi va to`g`ri tuzilganligini tekshirish.

### **1.3. «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalarni hisobga olishning me`yoriy-huquqiy asoslari**

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida olib borilgan iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy yo`naltirilgan bozor iqtisodiyotini qaror tortirishga va xalqaro

maydonda rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o`rin egallashga qaratilgandir.

Bunday tadbirlardan biri, korxonalar o`z faoliyatining natijalarini hisobga olishni bajaradi, buxgalterlik, statistik hisobotni olib boradi va uni belgilangan tartibda soliq inspeksiyasi va boshqa hokimlik organlariga taqdim etadi.

Buxgalterlik hisobot, "Odil-audit" MCHJning hisobotlarini tuzish va tekshirish O`zbekiston Respublikasidagi jumladan, Buxgalteriya hisobi to`g`risida»gi qonun (1996 yil, 30 avgust), «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to`g`risida Nizom» (1999 yil, 5 fevral), «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari» (1998-2003 yil) va boshqa me`yoriy hujjatlar hamda Jamiyatning ustaviga muvofiq olib boriladi.

Moliyaviy yil 1 yanvardan boshlanadi va 31 dekabrda tugaydi. Har chorak tugaganda jamiyatning balansi, foydalari va zararlari hisobiga tuziladi. Bosh direktor moliyaviy yil tugagandan keyingi yilning 25 fevralidan kechitirmay jamiyat faoliyati to`g`risidagi hisobotni beradi. Jamiyat balansidan undirilishining iloji yo`q qarzarlar, kamomadlar va yo`qolgan moddiy boyliklar ta`sischi bilan hisobdan chiqariladi.

«Odil-audit» MCHJda buxgalteriya hisobi BHMS va boshqa umumqabul qilingan me`yoriy-huquqiy hujjatlar hamda tarmoqning o`ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi hujjatlar asosida olib boriladi.

Jamiyat faoliyatining moliyaviy natijasini ta`riflovchi sintetik ko`rsatkich bo`lib balans (yalpi) foyda va zarari hisoblanadi va Nizomga asosan tartibga solinadi.<sup>5</sup> Ushbu Nizomning ahamiyati behad katta bo`lib u soliqqa tortiladigan foyda bilan buxgalteriya schyotida (balans foyda) hosil bo`ladigan foyda farqini aniqlash imkoniyatini beradi; foydalanuvchilar tomonidan qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy hisobotning ahamiyatini oshiradi.

---

<sup>5</sup> O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevral 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish va xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to`g`risida»gi Nizom



Nizomga ko`ra, bir tomonidan korxonalariga hisobot davri ichida sodir bo`lgan xarajatlar va daromadlar to`g`risidagi aniq ma`lumotlarni olish imkoniyatini bersa, ikkinchi tomondan soliq qonunlariga binoan soliq organlariga hisobotlarni tuzib torshirish imkoniyatini yaratadi. Bunda davlat o`z vakolatli organlari orqali soliq hisobotini to`g`riligini tekshirish huquqiga ega.

Agar soliq qonunchiligi korxonaga foydasi va rentabelligini aniqlashda tadbirkorlik – barcha daromadlardan barcha xarajatlarni chiqarib tashlash – qonuniga amal qilganda oson bo`lar edi. Lekin davlatning soliq siyosati faqat soliq hisoblash va uni byudjetga o`tkazib olishnigina inobatga olmaydi, balki soliq siyosati rag`batlantiruvchi xarakterga ega, xo`jalik Yuritishning ratsional usulini rag`batlantiradi va resurslardan qonunsiz foydalanishni jazolaydi. Soliq siyosati ma`lum ijtimoiy maqsadni ham ko`zlaydi, yangi hududlarni o`zlashtirishga undaydi va h. k.

Demak, jamiyat o`z xo`jalik faoliyatini samaradorligini aniqlash va kelgusi davrga boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun hisobot davrida daromad va xarajatlarni hisoblab chiqish imkoniyatini beradigan axborotlarni yig`ish va ishlab chiqish tizimiga ega bo`lishi kerak. Jamiyat – bu hisoblarni soliq faktorini inobatga olmasdan bajaradi.

Korxonaning balans foydasini aniqlash uchun sotishdan tushgan tushumdan olib tashlanadigan xarajatlar ro`yxati xarajatlar tarkibi to`g`risidagi Nizomning asosiy matnida keltirilgan. Bundan keyin korxonaga buxgalteriya hisobi schyotlarida ko`rsatilgan foydani soliq qonunchiligiga binoan tuzatib soliqqa tortiladigan bazani aniqlaydi. Buxgalteriya hisobi schyotlaridagi foydani soliq qonunchiligiga binoan tuzatishga misol sifatida normadan ortiq sarflangan safar xarajatlari, yoki normadan ortiq reklama xarajatlari va boshqalarni keltirish mumkin.

Shunday qilib, jamiyat axborotlarni yig`ish bosqichida xo`jalik faoliyati natijalariga ta`sir etuvchi tashqi (soliq) va ichki omillarga bo`lish imkoniyatini beruvchi buxgalteriya hisobi tizimiga ega bo`ladi. Demak, bu omillarga javoban asoslangan siyosat ishlab chiqish zarur bo`ladi.

Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizomda aytilganidek, ish va xizmatlarni bajarish - xo'jalik faoliyati natijasida korxonadan daromad quyidagi asosiy bo'limlar bo'yicha aks ettiriladi:

- sotishdan olingan sof tushum;
- asosiy faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlar (operatsion daromadlar);
- moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar;
- favqulodda foydalar.

1-jadval

**“Odil-audit” MCHJda moliyaviy natijalar hisobini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar**

№	Me'yoriy-huquqiy hujjatlar
1	O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonuni. 1996 yil 30 avgustda tasdiqlangan (O'zgartirishlari bilan).
2	O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. Rasmiy nashr. –T.: Adolat, 2008. – 692 b.
3	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish bo'yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi haqidagi Nizom».
4	21-sonli «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash haqida yo'riqnoma». 2002 yil 9 sentyabrda 103-son bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan va 2002 yil 23 oktyabrda 1181-son bilan Adliya vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan.
5	Umumdavlat soliqlarini hisoblash va byudjetga to'lash to'g'risida yo'riqnomalar.
6	Mahalliy soliqlar va yig'imlarni hisoblash va byudjetga to'lash to'g'risida yo'riqnomalar
7	Moliyaviy hisobot shakllari, 2002 yil 27 dekabrda O'zR Moliya Vazirining 140-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
8	Boshqa O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobining milliy standartlari.

Bunday bo'limlarning kiritilishi korxonaning turli faoliyatidan olinadigan daromadlarini ajratib ko'rsatish bilan izohlanadi: ish va xizmat ko'rsatish, sotish bo'yicha asosiy faoliyatidan, moliyaviy faoliyatidan va favqulodda

oreratsiyalardan. Daromadlarning bunday bo`linishi barcha qiziquvchi tomonlarga korxonalar faoliyatiga ob`ektiv baho berish imkoniyatini beradi.

“Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot” shaklida daromadlarni aks ettiruvchi dastlabki ko`rsatkich - bu mahsulot (yoki tovarlar) sotishdan (xizmatlar ko`rsatish, ishlar bajarishdan) yalpi tushumlardir. Hisobotning bo` ko`rsatkichi mahsulot sotishdan yalpi tushumdan tovarlarning qaytarilishi vaxaridorlarga berilgan chegirmalarni ayirib yuborish orqali aniqlanadi. Daromadlar tushunchasining ta`rifiga mos ravishda bu satr orqali asosiy faoliyat natijasida olingan tushum aks ettiriladi.

“Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot” shaklida xarajatlarni aks ettiruvchi dastlabki ko`rsatkich - bu sotilgan mahsulotlar (tovarlar, ko`rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) tannarxi bo`lib, bu ko`rsatkich sotilgan mahsulotlar (Tovarlar yoki ko`rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar) uchun ishlab chiqaruvchi tomonidan qilingan xarajatlarni anglatadi.

Mahsulot sotishdan olingan yalpi tushumso`mmasidan sotilgan mahsulot tannarxi so`mmasini chegirib yuborilsa, mahsulot sotishdan yalpi foyda (zarar) ko`rsatkichi kelib chiqadi. Bu ko`rsatkich ijobiy bo`lishi uchun sotuvchi o`z mahsulotini uni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarga nisbatan qimmatroq narxda sotishi kerak bo`ladi. Olingan yalpi foyda hisobiga korxonaning operatsion xarajatlari ham qoplanishi ko`zda tutilishi kerak. Shuni inobatga olgan holda hisobotda asosiy faoliyatdan foydani aniqlash uchun mahsulot sotishdan yalpi tushum summasidan operatsion xarajatlar chegirib yuboriladi. Operatsion xarajatlar tarkibiga mahsulotni sotish bilan bog`liq xarajatlar, ma`muriy va boshqa operatsion xarajatlar kiritiladi.

Xo`jalik yurituvchi subyekt uchun uchchala ko`rsatkich ham, ya`ni sotishdan yalpi tushum, sotilgan mahsulot tannarxi hamda operatsion xarajatlar, muhim ahamiyatga egadir, chunki mahsulot sotishdan tushumni o`stirishning o`zigina foyda summasining ko`payishiga olib kelmaydi. Foyda ko`p bo`lishi uchun operatsion xarajatlarni imkon qadar kamaytirish ham talab etiladi. Albatta, mahsulot tannarhini pasaytirish yo`llari topilishi ham ko`zda tutilishi kerak.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda moliyaviy faoliyat bo'yicha olingan natijalar alohida aks ettiriladi. Ular jumlasiga daromadlar sifatida olingan dividendlar, foizlar, moliyaviy ijara daromadlari, valyuta almashinuv kurslaridagi ijobiy farqlar kabilar, xarajatlarning sifatida esa to'langan dividendlar, foizlar, moliyaviy ijara to'lovlari, valyuta almashinuv kurslaridagi manfiy farqlar kabilar kiradi. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar va xarajatlarning algebraik yig'indisi moliyaviy faoliyat bo'yicha foyda yoki zararni ko'rsatadi.

Asosiy va moliyaviy faoliyat natijalari yig'indisi xo'jalik yurituvchi subyektlar umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar ko'rsatkichi sifatida aks ettiriladi. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar ko'rsatkichiga favqulodda foyda yoki zararlarni qo'shsak, soliqqa tortilgunga qadar foyda yuzaga keldi. Soliqqa tortilgunga qadar foyda summasidan foyda soligi va qonunchilikka asosan zahira kapitaliga qilingan ajratmalar summasini ayirib tashlagudek bo'lsak, xisobot yilining sof foydasi yuzaga keladi.

«Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalarning shakllanishi amaldagi standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobi schyotlar rejasining 9- bo'limida hisobga olinadi.<sup>6</sup>

Sotishdan olingan sof tushum yangi schyotlar rejasi bo'yicha 9000 «Asosiy (oreratsion) faoliyatdan olingan daromadlar» schyotining kreditidan olinadi. Unga tovarlarni qaytarilishi, xaridorlar uchun berilgan chegirmalar va boshqalar kiritilmaydi.

Ishlar va xizmatlarni sotishdan tushgan tushum tovar (bajarilgan ish va xizmatlar) ni yuklab jo'natilishiga va xaridorlarga hisoblashish hujjatlarini taqdim etilishiga qarab aniqlanadi. Taqdim etilgan hisoblashish hujjatlariga qarab moliyaviy natijalarni aniqlash uslubi bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarga xos. Buxgalteriya hisobining xalqaro andazalari moliyaviy natijalarni aynan shunday tartibda shakllantirishni talab qiladi.

Taqdim etilgan schyotlar bo'yicha moliyaviy natijalarni aniqlash qo'shilgan qiymat solig'i, byudjetga foydadan ajratma solig'ini to'lashda korxonalarni

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standarti 21-son BHMS

murakkab sharoitda qoldirishi mumkin. Shuning uchun ham korxonalar jo`natiladigan mahsuloti, bajariladigan ish va xizmatlari uchun oldindan haq to`lash usulidan foydalanishi kerak. Demak, tadqiqot obyektida shakllantiriladigan moliyaviy natijalar standartlarda belgilangan buxgalteriya hisobi schyotlari orqali hisobga olinadi hamda moliyaviy hisobot shakllarida o`z ifodasini topadi.

## **2-Bob. «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalar hisobi va tahlilining amaliy holati**

### **2.1. “Odil-audit” MCHJda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi va tahlili**

«Odil-audit» mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyatining moliyaviy natijasini ta’riflovchi asosiy ko’rsatkich bo’lib, balans (yalpi) foyda va zarari hisoblanadi. Moliyaviy natijani aniqlash tartibi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 – sonli qarori bilan «Mahsulot (ishlar , xizmatlar )ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to’g’risidagi Nizom»ning yangi qaytadan ishlab chiqilgani tasdiqlanib 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab amalga tadbiiq etildi. Ushbu Nizomning ahamiyati katta bo’lib, u soliqqa tortiladigan foyda bilan buxgalteriya schyotida balans foyda hosil bo’ladigan foyda farqini aniqlash imkoniyatini beradi.

Jamiyat tomonidan olinadigan foydaning tarkibini aniqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki qaysi faoliyat turidan jamiyat foyda olayotganligi va qaysi faoliyat turidan zarar ko’rayotganligini bilish jamiyatning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligiga ham o’zining ta’sirini o’tkazadi.

Foydaning quyidagi turlari bor: 1.Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda; 2.Asosiy faoliyatidan olingan boshqa foyda (oreratsion foyda); 3. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda; 4. Favqulodda olingan foyda;

«Odil-audit» mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko’rsatkichlari bilan tasniflanadi:

a) Xizmatlarni bajarishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o’rtasidagi tavofut sifatida aniqlanadi:

$$YaF = SST - IT$$

bunda,

YaF – yalpi foyda; SST – sotishdan olingan sof tushum; IT – ish va xizmatlarni bajarish tannarxi;

b) asosiy faoliyatdan ko’rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi

c) foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF - DX + BD - BZ,$$

bunda,

AFF – asosiy faoliyatdan olingan foyda; DX – davr xarajatlari; BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar; BZ – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar;

d) xo'jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zararlar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF = AFF + MD - MX,$$

bunda,

UF – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda; MD – moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar; MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari;

e) soliq to'lagungacha olingan foyda, u umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda plus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlarda ko'rilgan foyda va minus favqulodda zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF = UF + FR - FZ,$$

bunda,

STF – soliq to'lagungacha olingan foyda; FR – favqulodda vaziyatlardan olingan foyda; FZ – favqulodda vaziyatlardan ko'rilgan zarar;

f) yilning soy foydasi, u soliq to'langandan keyin jamiyat ixtiyorida qoladi, o'zida foydadan to'lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to'lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to'langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$SF = STF - DS - BS,$$

bunda,

SF – sof foyda; DS – foydadan to'lanadigan soliq; BS – boshqa soliqlar va to'lovlar.

Foydaning taqsimlanishi deganda uning iste'mol va jamg'arishga yo'nal-

tirilishi, joriy davr foydasining soliqlar to'lovi, ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga hamda karital egalari o'rtasidagi shartlar, kelishuvlarga binoan taqsimlanishi tushuniladi.

«Odil-audit» MCHJda foyda quyidagicha taqsimlanadi:

- soliq qonunchiligiga muvofiq davlat byudjetiga soliqlar, yig'imlar va to'lovlarga;
- ishlab chiqarishni rivojlantirish va zaxiralashga;
- aksiya va kapital egalari dividendlar to'lashga.

«Odil-audit» MCHJ o'zining hisob foydasidan, avvalo, davlat oldida hisob beradi va o'zining ixtiyorida hamda tasarrufida bo'lgan foyda summasini aniqlaydi. Foydadan olingan soliqlar qat'iy stavkalarda va foizlarda undiriladi. Hisob foydasining qolgan qismi jamiyat sof foydasi sifatida uning erkin belgiloviga (aktsiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori va ichki nizomiga) muvofiq taqsimlanadi.

Mahsulot (ish xizmatlar)ni sotishdan olingan yalpi foyda korxonada yaratilgan foydani ifodalaydi. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foydani torish uchun mahsulotni sotishdan tushgan sof tushumlardan shu sotilgan mahsulot tannarxini chegirib tashlash kerak, o'z navbatida, xizmat ko'rsatishdan tushgan sof tushumni topish uchun ishlar va xizmatlarni sotishdan keyin kelgan tushumdan xaridorga berilgan skidkalar (chegirmalar) ayirib tashlanadi.

Demak, ish va xizmatlarni bajarishdan olingan yalpi foyda xizmat ko'rsatishdan tushgan sof tushum bilan bajarilgan xizmat tannarxi orasidagi farqqa teng. Bu farq ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Ijobiy farq foyda sifatida, salbiy farq esa zarar sifatida e'tirof etiladi.

Jamiyatda xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumni hisobga olish uchun quyidagi schyotlar ochilgan: 9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad»; 9050 - «Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad» schyotining kreditida korxonaning asosiy faoliyatidan (xizmat ko'rsatish) olingan daromadlar aks ettiriladi va 4010-«Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan



schyotlar hamda pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debeti bilan o'zaro korres-pondentsiyada bo'ladi. Oldingi davrda olingan, ammo hisobot yiliga tegishli bo'lgan daromadlar summasiga pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar debetlanib, 6210-«Muddati uzaytirilgan daromad» yoki 6310-«Xaridor va buyurt-machilardan olingan avanslar» schyotlari kreditlanadi.

Xizmat ko'rsatish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi: undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof etilgan jarimalar, renyalar, vaqtida to'lanmagan qarzlilar va xo'jalik shartnomalari shartlarini buz-ganlik uchun boshqa xil jazo jarimalari, shuningdek etkazilgan zararlarni undirish bo'yicha daromadlar; hisobot yilida aniqlangan o'tgan yillardagi foyda; ishlab chiqarish va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish bilan bevosita bog'liq bo'lmagan operatsiyalardan renta daromadi, xo'jalik yurituvchi subyektlar huzuridagi oshxonalardan tushumlar, yordamchi xizmatlardan daromadlar sifatidagi kirim qilingan boshqa daromadlar; xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy fondlarini va boshqa mol-mulklarini sotishdan olingan daromadlar; da'vo muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar; tovar-moddiy boyliklarni qayta baholash; davlat subsidiyalaridan daromadlar; xolisona moliyaviy yordam; boshqa muomala daromadlari.

«Odil-audit» MCHJda asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar quyidagi schyotlarda aks ettiriladi: 9310 - «Asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foyda»; 9320 - «Boshqa aktivlarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishidan olingan foyda»; 9330 - «Undirilgan jarima, boqimanda va burdsizliklar»; 9340 - «O'tgan yil foydasi»; 9350 - «Operativ ijaradan olingan daromad»; 9360 - «Kreditorlik va deronentlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar»; 9370 - «Xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarning daromadlari»; 9380 - «Qaytarilmaydigan moliyaviy yordam»; 9390 - «Boshqa operatsion daromadlar».

Davr xarajatlari tarkibiga korxonalar xizmat ko'rsatish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lmagan xarajatlar kiradi. Bular jumlasiga boshqaruv, tijorat bilan bog'liq xarajatlar, shuningdek umumxo'jalik xarajatlari, jumladan ilmiy-tadqiqot

va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha xarajatlar ham kiradi. Bu xarajatlar korxonada asosiy faoliyati va mahsulot sotish bilan bog'liq bo'lmaganligi, lekin ma'lum bir jarayonlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lganligi uchun ular operatsion xarajatlar, umumiy va ma'muriy xarajatlar deyiladi. Ular ish va xizmat ko'rsatish va sotish hajmiga bog'liq bo'lmagani, va aksincha, vaqt bilan, xo'jalik faoliyatining davomiyligi bilan bog'liq bo'lgani sababli ular davr xarajatlari deb yuritiladi.

Xizmat ko'rsatish, ma'muriy xarajatlar, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi.

«Odil-audit» MCHJda davr xarajatlari quyidagi schyotlarda aks ettiriladi: 9410 - «Sotish xarajatlari»; 9420 - «Ma'muriy xarajatlar»; 9430 - «Boshqa operatsion xarajatlar»; 9440 - «Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari».

Nizomga binoan sotish xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi: temir yo'l, suv, avtomobil, ot-ulovda tashish xarajatlari hamda transport vositalari bekor turib qolganligi uchun to'langan jarimalar; savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining xarajatlari; xizmatlarni sotish bilan bog'liq mehnatga haq to'lash xarajatlari (ma'muriy-boshqaruv xodimlaridan tashqari); ularning ijtimoiy sug'urta ajratmalari; savdo ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va xonalarni ijaraga olish, saqlash va tuzatish xarajatlari; asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi; sanitariya kiyim-boshi, oshxonada dasturxon va sochiqlari, oshxonada idish-tovog'i va anjomlarining eskirishi; gaz, yoqilg'i, elektr energiyasi xarajatlari; tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish va ularni sortlarga ajratish xarajatlari; savdo reklamasi xarajatlari;

Yuqorida keltirilgan xarajatlar 9410-«Sotish bo'yicha xarajatlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Ushbu schyot tranzit hisovaraq bo'lib, qaysi davr bo'lmasin uning oy boshida qoldiq summasi bo'lmaydi. Schyotning debet tomonida sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar ko'rsatilsa, kredit tomonida ushbu xarajatlarni hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Bu summa foydaning kamayishiga olib keladi, ya'ni foyda hisobidan qorlanadi.

9410-«Sotish bo'yicha xarajatlar» hisobvarag'ining analitik hisobi 15-sonli qaydnomada xarajatlarning debet va kredit oboroti ko'rsatiladi. Debet oborotining jami summasi №1, 2, 7, 10/1-jurnal orderlarda aks ettirilsa, kredit bo'yicha oborot summolari esa №11-jurnal-orderida aks ettiriladi.

Korxonalar ishini olib borish, uyushtirish va boshqarish tegishli xarajatlarni talab qiladi. Har bir korxonada bunday xarajatlarni qoplash uchun tegishli ajratmalar qiladi va bu ajratmalar 9420-«Ma'muriy (boshqaruv) xarajatlar» hisobvarag'ida hisobga olinadi. Unga quyidagi xarajatlar kiradi: boshqaruv xodimlariga tegishli bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari; boshqaruv xodimlariga tegishli ijtimoiy sug'urta ajratmalari; xizmat engil avtotransporti va xizmat mikroavtobusini saqlash, yollash va ijaraga olish xarajatlari; jamiyat va uning tarkibiy bo'linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari; boshqaruvning texnik vositalari, aloqa uzellari, signalizatsiya vositalari, hisoblash markazlarini va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan boshqaruvning boshqa texnik vositalarini saqlash hamda ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

9440-«Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari» hisobvarag'ida hisobot davrida soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan, ammo ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun qilingan xarajatlarni rejalashtirilgan samaraga erishilgan holda, kelgusi hisobot davrlarida soliqqa tortiladigan bazadan kamaytiriladigan xarajatlar hisobga olinadi.

«Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga binoan moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlarga quyidagilar kiradi: olingan royaltlar va sarmoya transferti; O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo'shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aktsiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda jamiyatga tegishli qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar; mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (ijara to'lovini olish); valyuta schyotlari, shuningdek chet el valyutalaridagi muomalalari bo'yicha ijobiy kurs tafovutlari; sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho'ba korxonalariga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan olingan daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar soliqqa tortishda yalpi daromadga kiritilmaydi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlar hisobi «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Ijara hisobi» nomli 6-son BHMS, «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

«Odil-audit» MCHJda moliyaviy faoliyat bo'yicha olinadigan daromadlar uchun quyidagi schyotlar ochilishi mumkin: 9510 - «Royaltidan olingan daromadlar»; 9520 - «Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar»; 9530 - «Foiz ko'rinishidagi daromadlar»; 9540 - «Kurs farqlaridan olingan daromadlar»; 9550 - «Moliyalanadigan ijaradan olinadigan daromadlar»; 9560 - «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar»; 9590 - «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar».

Ushbu schyotlar tranzit bo'lib, passiv xarakterga ega. Ularning kredit oborotida tegishli manbalar hisobidan moliyaviy foydaning ko'rayishi, debet oborotida esa ularning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi.

9510-«Royaltidan olingan daromadlar» hisobvarag'ida royalti va karital transferti bo'yicha olingan daromadlar aks ettiriladi.

Royaltidan olingan daromadlarga quyidagicha buxgalteriya yozuv beriladi:

*D-t 4850-«Royalti bo'yicha olishga tegishli schyotlar»*

*K-t 9510-«Royaltidan olingan daromadlar».*

9520-«Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar» hisobvarag'ida O'zbekiston Respublikasi hududida va chet ellarda ulush qo'shish yo'li bilan boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishdan olingan daromadlar, aktsiyalar bo'yicha dividendlar aks ettiriladi.

Dividendlar bo'yicha olinadigan daromadlarga quyidagicha buxgalteriya yozuv beriladi:

*D-t 4840-«Olinadigan dividendlar»*

*K-t 9520-«Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar».*

9530-«Foizlar ko'rinishidagi daromadlar» hisobvarag'ida uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar bo'yicha hisoblangan foizlar aks ettiriladi. Foizlar hisoblanganida quyidagicha buxgalteriya yozuv beriladi:

*D-t 4830-«Olinadigan foizlar»*

*K-t 9530-«Foizlar ko'rinishidagi daromadlar».*

9540-«Kurs farqlaridan olingan daromadlar» hisobvarag'ida Valyuta schyotlari, shuningdek xorijiy Valyuta muomalalari bo'yicha ijobiy kurs farqlaridan olingan daromadlar aks ettiriladi.

9550-«Moliyalanadigan ijaradan daromadlar» hisobvarag'ida mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromad aks ettiriladi.

Moliyalanadigan ijara bo'yicha joriy yilda olinadigan daromad summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuv beriladi:

*D-t 6230-«Muddati uzaytirilgan daromad» - joriy qismi*

*K-t 9550-«Moliyalanadigan ijaradan daromadlar»*

Moliyaviy ijara bo'yicha asosiy vositalarni ijaraga berishdan olingan daromad summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuv beriladi:

*D-t 7290-«Boshqa muddati uzaytirilgan majburiyatlar»*

*K-t 9550-«Moliyalanadigan ijaradan daromadlar».*

Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalar bo'yicha qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatidan ortiq baholangan farq summasiga quyidagicha buxgalteriya yozuv beriladi:

*D-t 0610, 5810*

*K-t 9560-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa daromadlar».*

9590-schyotda moliyaviy faoliyatning boshqa turlaridan olingan foyda aks ettiriladi.

Hisobot davri yakunida 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9560, 9590-schyotlarning kredit oborotidagi summalar Yakuniy moliyaviy natijaga o'tkaziladi.

«Odil-audit» MCHJda moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari darajasida va ulardan ortiqcha olingan qisqa muddatli hamda uzoq

muddatli kreditlar bo'yicha, shu jumladan to'lov muddati o'tgan va uzaytirilgan ssudalar bo'yicha to'lovlar; mulkni uzoq muddatli ijaraga olish (ijara) bo'yicha foizlarni to'lash xarajatlar; chet el valyutasi bilan muomalalar bo'yicha salbiy kurs tafovutlaridan zararlar; sarflangan (qimmatli qog'ozlarga, sho''ba korxonalariga va hokazolarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar; o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog'liq xarajatlar; moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan salbiy diskont.

«Odil-audit» MCHJda moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlarni hisobda aks ettirish uchun quyidagi schyotlar ochilgan: 9610 - «Foizlar ko'rini-shidagi xarajatlar»; 9620 - «Kurs farqlaridan zararlar»; 9630 - «Qimmatli qog'oz-larni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar»; 9690 - «Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar».

Ushbu schyotlar tranzit bo'lib, aktiv schyot xarakteriga ega. Ularning debet oborotlari sodir bo'lgan moliyaviy xarajatlarni, kredit oboroti esa ularning hisobdan chiqarilishini ko'rsatadi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar hisobi «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Ijara hisobi» nomli 6-son BHMS, «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BHMSlar bilan tartibga solinadi.

Favqulodda foyda moddalari - bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan, hodisa yoki jamiyatning odatdagi faoliyat doirasidan chetga chiqadigan tusdagi muomalalar natijasida raydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydadir. Bunga daromadlarning favqulodda moddalari yoki asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar bo'limida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davrlardagi foyda kirmaydi.

Favqulodda zararlar - bu jamiyatlarning odatdagi faoliyatidan chetga chiquvchi hodisalar yoki muomalalar natijasida vujudga keladigan va ro'y berishi kutilmagan odatdan tashqari xarajatlardir. Bunga favqulodda va davr xarajatlari tarkibida aks ettirilishi kerak bo'lgan o'tgan davr xarajatlari kirmaydi.

U yoki bu moddaning favqulodda foyda va zararlar sifatida aks ettirilishi uchun u quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- korxonaning odatdagi xo'jalik faoliyatiga xos emaslik;
- bir necha yil mobaynida takrorlanmasligi kerak;
- boshqaruv xodimi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog'liq emaslik.

«Odil-audit» MCHJda favqulodda foyda va zararlar quyidagi schyotlarda aks ettiriladi: 9710 - «Favqulodda foyda»; 9720 - «Favqulodda zarar».

Ushbu schyotlar tranzit bo'lib, 9710-schyot-passiv, 9720-schyot-aktiv xarakterga ega.

Yakuniy moliyaviy natija - bu korxonaning hisobot davrida jami faoliyat turlaridan olingan daromadlari bilan jami faoliyat bo'yicha ko'rilgan zararlarining farqidir.

Yakuniy moliyaviy natija buxgalteriya hisobida 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ida hisobga olib boriladi. Ushbu schyot tranzit bo'lib, aktiv-passiv schyot xarakteriga ega. Schyotning debetida zararlar, kreditida esa foyda aks ettiriladi. Ushbu schyotning debet va kredit oborotlarining farqi korxonaning hisobot yilidagi moliyaviy natijasini, ya'ni soliq to'langunga qadar bo'lgan foydasini aks ettiradi. Hisobot yilining oxirida 9810-«Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar», 9820-«Boshqa soliq va yig'imlar bo'yicha xarajatlar» schyotlarida foyda (daromad)dan hisoblangan umumiy summa aks ettiriladi. Hisobot davrida hisoblangan soliq va yig'imlar summasi quyidagi buxgalteriya yozuv orqali chegirib tashlanadi:

*D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»*

*K-t 9810, 9820.*

Ushbu muomaladan so'ng 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» hisobvarag'ida qolgan summa korxonaning hisobot yilida olgan sof foyda (yoki zarar)ini anglatadi va ushbu summa quyidagi buxgalteriya yozuv orqali 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qorlanmagan zarari)» hisobvarag'iga o'tkaziladi:

- sof foyda summasiga:

*D-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»*

*K-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qorlanmagan zarari)»*

- zarar summasiga:

*D-t 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qorlanmagan zarari)»*  
*K-t 9900-«Yakuniy moliyaviy natija».*

## **2.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni tuzish**

O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat ko'rsatayotgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar belgilangan tartib, muddat va shakllarda hisobotlar taqdim qilishlari shart. Respublikamizda moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari darajasiga yaqinlashtirish va soddalashtirish ustida jiddiy ish olib borilmoqda. Moliyaviy hisobotlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning ma'lum davr ichidagi moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalari, asosiy vositalari harakati, pul oqimlari to'g'risidagi va ma'lum sanadagi aktivlari, majburiyatlari va xususiy karitalining holati haqida axborotlar beradi.

Moliyaviy hisobotlarni tuzish, odatda uning konseptual asoslariga tayangan holda amalga oshiriladi. Konseptual asos eng avvalo quyidagilarni hal qilish uchun zarur: mavjud kontsertsiya va tamoyillar asosida tizim tuzish; yangi amaliy qiyinchiliklar vujudga kelganda ularni echish uchun algoritim yaratish; moliyaviy axborotlardan foydalanuvchilarda ularni tushunish darajasini oshirish; turli korxonalar moliyaviy hisobotlari raqobatbardoshligini oshirish.

Moliyaviy hisobotlarning maqsadini ikki toifaga - asosiy va ikkinchi darajali maqsadlarga ajratish mumkin. Asosiy maqsadi - moliyaviy holat, moliyaviy natijalar va pul mablag'lari haqidagi ishonchli ma'lumotlarni taqdim qilishni ta'minlash bo'lsa, Ikkilamchi maqsadi esa, qarorlar qabul qilish maqsadida barcha foydali axborotlarni taqdim qilish yo'li bilan ochiq – oydinlikni ta'minlashdir.

Moliyaviy hisobot kontsepsiyalari moliyaviy hisobotlarni tuzish tartib qoidalarini belgilab berar ekan ularni tuzishga qo'yiladigan talablar (buxgalteriya hisobi axborotlarining sifat xususiyatlari), taqdim qilinayotgan axbo-rotlarning minimal tarkibi (moliyaviy hisobot elementlari) va ular hal qilishi mumkin bo'lgan asosiy masalalar mazmunini ham asoslab beradi. Moliyaviy hisobotlarni tuzishdan maqsad ulardan foydalanuvchilarga taqdim qilinayotgan axborotlar asosida quyidagi vazifalarni hal qilish imkonini berish kerak: investitsion qarorlar va



kreditlar berish bo'yicha qarorlar qabul qilish; xo'jalik subyektining kelgusi pul oqimlarini baholash; xo'jalik subyektiga ishonib torshirilgan iqtisodiy resurslar tufayli uning resurslari va majburiyatlarini baholash; rahbariyat faoliyatini baholash.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarish va asosiy maqsadga erishish uchun esa moliyaviy hisobot axborotlari ma'lum bir talablarga javob berishi kerak. Ulardan eng muhimlari - bu axborotning sifat tavsiflari yoki xususiyatlaridir, ya'ni axborotlarning foydaliligi belgilari (tushunarlilik, ishonchlilik, ahamiyatlilik va taqqoslanuvchanlik), cheklovlar (o'z vaqtidalilik, man-faatlar va tavsiflar orasidagi balans, sifat tavsiflari orasidagi balans) hamda eng muhim yo'l quyishlar (hisoblash tamoyili, faoliyatning davomiyligi). Ular buxgalteriya hisobi axborotning u yoki bu qarorlarni qabul qilish uchun foydali-ligini aks ettiradilar va belgilaydilar.

Moliyaviy hisobotlarda jamiyatning o'z majburiyatlarini bajarishi va sarmoyalarini qaytarishi uchun daromad va kelgusida naqd pul tushumlarini olish qobiliyatini amalga oshirish uchun yordam beradigan axborotlarni aks ettiradi. Taqdim qilingan hisobot ma'lumotlaridan korxonada rahbarining faoliyatini baholash maqsadida ham foydalaniladi.

Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari buxgalteriya axborotining qaror qabul qilish jarayonidagi foydalilik darajasini oshiruvchi xususiyatlarini belgilaydi va aniqlaydi. Yuqorida sanab o'tilganidek buxgalteriya axborotining to'rtta asosiy sifat xususiyatlariga quyidagilar kiradi: tushunarlilik; ahamiyatlilik; ishonchlilik; solishtirish imkonining mavjudligi.

Izchillik buxgalteriya hisobining bir xildagi kontsepsiyalari va tamoyillarining yildan-yilga izchil ravishda qo'llanilishini nazarda tutadi. Buxgalteriya hisobining tamoyillari o'zgarmasligi kerak, degan farazlar bor. Biroq, haddan tashqari qat'iy izchillik axborotning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatilishiga olib kelishi mumkin. Buxgalteriya hisobining ayrim tamo-yillarini tanlashda o'zgarishga yo'l qo'yish izchillikning buzilishiga olib kelishi ham mumkindir. Buxgalteriya hisobining yangi siyosatini aks ettirish va qo'shimcha axborotni

ochib berish maqsadida, mazkur yaqqol ko'rinuvchi to'qnashuv mavjud bo'lgan moliyaviy hisobotlar asosida qaytadan hisobot tayyorlash orqali hal etiladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot – bu shunday moliyaviy hisobotki, unda ma'lum bir davr uchun korxonaning daromadlari va hisobga olingan xarajatlari umumlashtiriladi.

Moliyaviy hisobotning maqsadi va vazifalari unda aks ettirilishi lozim bo'lgan axborotlarning turi, nomi va ko'lamini belgilab beradi. Moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar qarorlar qabul qilishlari uchun xo'jalik yurituvchi subyekt haqida quyidagi axborotlarni taqdim etish talab qilinadi: korxonaning iqtisodiy resurslari, majburiyatlari va karitali; korxonaning iqtisodiy resurslari, majburiyatlari hamda karitalida sodir bo'lgan o'zgarishlar; korxonaning iqtisodiy holati.

Boshqacha hilib aytganda korxonaning moliyaviy holati, hisobot davri uchun moliyaviy natijalari hamda mulkiy holati haqidagi ma'lumotlar moliyaviy hisobotda aks ettirilishi kerak. Ushbu ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi-ning «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq quyidagi shakllarda aks ettirish tavsiya etiladi:

- Buxgalteriya balansi – 1-son; shakl
- Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot -2-son; shakl
- Pul oqimlarining harakati to'g'risidagi hisobot – 4-son ; shakl
- Xususiy kapitalning harakati to'g'risidagi hisobot -5-son ; shakl

2-sonli «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» shaklda korxonaning mahsulot sotishdan ko'rgan moliyaviy natijasi, asosiy faoliyat, umumxo'jalik faoliyati bo'yicha moliyaviy natijasi va sof foydasi ko'rsatiladi. Bu shakl ma'lumotlari buxgalteriya balansini tuzishda ishlatiladi.

«Odil-audit» MCHJda Adliya Vazirligida 2003 yil 24 yanvarda 1209-son bilan ro'yxatdan o'tgan O'zR Moliya Vazirligining 27 dekabrda 140 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot shaklini to'ldirish bo'yicha yo'riq-noma asosida tartibga solinadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni to'ldirish O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 27 avgustda ro'yxatga olingan «Moliyaviy natija to'g'risidagi hisobot» nomli 3-son BHMS asosida joriy buxgalteriya ma'lumotlari bo'yicha tuziladi.

Hisobotning 010 - qator 90 «Asosiy (oreratsion) faoliyatdan olingan daromadlar» schyotining tegishli (9010 - 9030) subschyotlaridan olinadi. Bu schyotlarning summasidan 9050 - «Sotilgan tovarlarning qaytarilishi va chegirmalar» schyotining summasi chiqarib tashlanadi.

020 - qator summasi 9110 - «Sotilgan tayyor mahsulotlar tannarxi» schyotining tegishli subschyotlari (9110 - 9130) dan olinadi.

030 - qator summasini torish uchun 010 - qator summasidan 020 - qator summasini ayirib tashlash kerak.

«Davr xarajatlar, hajmi» moddasida (satr 040) 050, 060, 070, 080, qatorlarning umumiy summasi yoziladi.

«Sotish bo'yicha xarajatlar» moddasi bo'yicha (050 qator) sotish bo'yicha xarajatlar aks ettirilib, ular 9410 «Sotish bo'yicha xarajatlar» schyotidan olinadi.

«Ma'muriy xarajatlar» moddasi bo'yicha (060 qator) ma'lumotlari 9420 «Ma'muriy xarajatlar» schyotiga olinadi.

«Boshqa oreratsion xarajatlar» moddasi bo'yicha (070 qator) ma'lumotlar 9430 «Boshqa ma'muriy xarajatlar» schyotiga olinadi.

«Kelgusi soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari» moddasi bo'yicha (080 qator) ma'lumotlar 9440 «Kelgusi soliqqa tortiladigan bazadan chegiriladigan hisobot davri xarajatlari» schyotiga olinadi.

«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» moddasi bo'yicha (090 qator) ma'lumotlar 9300 «Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» schyotlariga olinadi.

«Asosiy faoliyatning foydasi (zarari)» moddasi bo'yicha (100 qator) ma'lumotlar 030 - qator summasidan 040 - qator summasini ayirib tashlash 090 - qator summasini qqshish yqli bilan aniqlanadi.

«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, jami» moddasi bo`yicha (110 qator) ma'lumotlar 120, 130, 140, 150, 160 - qatorlar summalarini qqshish yqli bilan toriladi.

«Dividend shaklidagi daromadlar» moddasi bo`yicha (120 qator) ma'lumotlar 9520 «Dividendlar ko`rinishidagi daromadlar» schyotidan olinadi.

«Foizlar shaklidagi daromadlar» moddasi bo`yicha (130 qator) ma'lumotlari 9530 «Foizlar shaklidagi daromadlar» schyotidan olinadi.

«Uzoq muddatli ijara dan daromadlar» moddasi bo`yicha (140 qator) ma'lumotlari 9550 «Uzoq muddatli ijara (moliyaviy ijara)dan daromadlar» schyotidan olinadi.

«Valyuta kursi farqidan daromadlar» moddasi bo`yicha (150 qator) ma'lumotlari 9540 «Valyutalar kurslari farqlaridan daromadlar» schyotidan olinadi.

«Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari» moddasi bo`yicha (160 qator) ma'lumotlari 9510 «Royatli ko`rinishidagi daromadlar», 9560 «Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan daromadlar», 9590 Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar» schyotlaridan olinadi.

«Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlar» moddasi bo`yicha (170 qator) ma'lumotlari 180, 190, 200, 210 qatorlarning jami aks ettiriladi.

«Foizlar shaklidagi xarajatlar» moddasi bo`yicha (180 qator) ma'lumotlari 9610 «Foizlar shaklidagi xarajatlar» schyotidan olinadi.

«Uzoq muddatli ijara (moliyaviy ijara)» moddasi bo`yicha (190 qator) ma'lumotlar 9610 «Foizlar shaklidagi xarajatlar» schyotidan olinadi.

«Valyuta kursi farqidan zararlar» moddasi bo`yicha (200 qator) ma'lumotlar 9630 «Valyuta kursi farqidan zararlar» schyotiga olinadi.

«Moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa xarajatlar» moddasi bo`yicha (210 qator) ma'lumotlari 9630 Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo`yicha xarajatlar», 9690 «Moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa xarajatlar» schyotlaridan olinadi.

«Umumxqjalik faoliyatining foydasi (zarari)» moddasi bo`yicha (220 qator) 100 qator summasiga 110 qator summasini qqshib 170 qator summasini tashlangandan hosil bqlgan summa yoziladi.

«Favqulotdagi foyda va zararlar» moddasi bo`yicha (230 qator) daromadi bo`yicha ma`lumotlar 9710 «Favqulotda zararlar» schyotidan olinadi.

«Foyda solig`i tqlaguncha qadar foyda (zarar)» moddasining (240 qator) ma`lumotlari 220 qator summasiga 230 qator summasini (foyda bqlsa) qqshib, (zarar bqlsa) chegirib tashlash yqli bilan toriladi.

«Foyda solig`i» moddasi bo`yicha (250 qator) ma`lumotlar 9810 «Foyda solig`i bo`yicha xarajatlar» schyotidan olinadi.

«Foydadan boshqa soliqlar va yig`imlar» moddasi bo`yicha (260 qator) korxonadan tomonidan yil boshidan foyda hisobidan hisoblanib tqlangan soliq va yig`imlar summasi aks etriladi.

«Hisobot davrining sof foyda (zarari)» moddasi bo`yicha (270 qator) ma`lumotlar 240 qator summasidan 250 va 260 qatorlar summalarini ayirish yqli bilan toriladi.

### **2.3. “Odil-audit” MCHJda moliyaviy natija ko`rsatkichlarini umumiy tahlil qilish tartibi**

Bozor munosabatlarining rivojlana borishi korxonalarining moliyaviy natijasini belgilovchi muhim omil sifatida foydaning rolini oshiradi. Chunki foyda korxonalarining kelgusi ravnaqi, ishchi-xizmatchilarni ijtimoiy himoyalashni ta`minlovchi asosiy manbadir. Shuningdek davlat byudjeti daromadining aksariyat qismi ham foydadan to`lanadigan soliq, hisobidan to`ldiriladi. Shu tufayli ahamiyati muximligini hisobga olgan xolda moliya organlari, soliq, insreksiyasi, auditor va ichki xo`jalik (hisobchi, iqtisodchi) mutaxassislaridan foydaning shakllanishi va ishlatilishini muntazam nazorat qilib turish talab etiladi.

Iqtisodiyot lug`atida foyda — bu buxgalteriya tushunchasida daromadning ko`payganligini anglatadi deb ta`riflangan. Shuningdek foyda korxonadan va firmalarning mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan, asosiy va umumxo`jalik faoliyatlari

natijasidan hamda favquloddagi vaziyatlardan so`ng o`z barcha xarajatlarini qoplab, qo`shimcha olgan daromadlar yig`indisidan iboratdir deb tushunish ham mumkin. Demak olingan foydani tahlil qilishda, daromadning ko`paygan yoki kamayganligi, uning o`zgarish sabablari va bunga ta`sir etuvchi omillar o`rganilishi lozim.

Tahlil mazmuni sof foyda tarkibini, xizmatlar sotishdan ko`rilgan moliyaviy natija va uning o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillarni aniqlash, asosiy ishlab chiqarish faoliyati natijalari, moliyaviy va investitsiya faoliyatlari natijasi, favquloddagi vaziyatlar natijalari, soliq to`lagunga qadar, foyda va korxonada ixtiyorida qolgan yilning sof foydasi hajmini o`rganishdan iboratdir.

Tahlilni amalga oshirishda asosiy manba bo`lib, O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tasdiqlangan 2-shakl «Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot» ma`lumotlari hamda 15-«Jurnal order», «Foyda va zararlar», «Foydaning ishlatilishi», «Taqsimlanmagan foyda» sintetik schyotlaridagi ko`rsatkichlardan foydalaniladi.

Yilning sof foydasi, Jamiyatning rivojlanishining birdan-bir manbasi hisoblanadi. Olingan daromad hajmiga qarab, Jamiyat faoliyatiga baho beriladi. Foyda Jamiyat faoliyatining asosiy manbai hisoblanib, uning hajmini ko`payganligi, o`z-o`zini mablag` bilan ta`minlash va moliyalashga, kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishga hamda mehnat jamoasining ijtimoiy talabini qondirishga ishlatiladi. Shuningdek olingan foyda hisobidan byudjet, bank va boshqa tashkilotlarga bo`lgan to`lov majburiyatlari bajariladi. Demak korxonada moliyaviy natijasini tahlil qilishda foydaning tashkil torishi va ishlatilishini o`rganish lozim.

Amaldagi nizomga muvofiq Jamiyat sof foydasi barcha faoliyatlar natijasidan aniqlanadi. Jumladan mahsulot, ish va xizmatlar sotishdan olingan moliyaviy natija, asosiy faoliyat natijalari, moliyaviy faoliyatdan ko`rilgan foyda yoki zararlar hamda favquloddagi vaziyatlar natijasida olingan zarar (foyda)larning yig`indisidan iboratdir. Korxonaning yillik sof foydasi tarkibi va uning o`zgarishiga baho berish ma`lumotlari 1-jadvalda keltirilgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, jamiyatning hisobot davridagi sof foydasi 29 mln. 785 ming so'mga ko'paygan. Bunga asosiy sabab xizmatlar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natijaning o'tgan yilga nisbatan 93 mln. 488 ming so'mga ko'payganligi sabab bo'lgan, lekin korxonaning davriy xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan sarflarning salkam 88.1 mln. so'mga ortganligi hisobot davrining sof foydasi hajmini kamayishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek foydadan to'langan soliqlarni o'tgan yilga nisbatan 5,8 mln. so'mdan yuqoriroqqa ko'payishi ham foyda hajmining kamayishiga ta'sir ko'rsatgan. Umuman olganda, hisobot davrining sof foydasini 5 mln. 412 ming so'mga o'tgan yilga nisbatan ko'payganligi korxonalar uchun yaxshi xolatdir.

Xizmatlar sotishdan olingan tushum hajmi firma va kompaniyalarning qanday baholarda va kimlarga o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotishligiga, shartnomada ko'zda tutilgan baxolarning miqdoriga bog'liqdir. Yalpi tushumni bilish uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning tegishli satridan o'tgan yilgi va hisobot davridagi ma'lumotlaridan qaraladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va modernizatsiyalash davrida foyda ko'rmasdan ishlaydigan korxonalar bo'lmasligi kerak. Xarajatlarni daromadlari qoplamaydiganlar qarz (kredit) hisobiga yashashadi.

Shuning uchun foyda ko'rish korxonalarining raqobatlariga bardoshligi kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy manbai hisoblanadi.

## «Odil-audit» MCHJning 2015 yil sof foydasi tarkibi tahlili

Ko`rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O`zgarishi (+, -)
	Ming so`m	Ming so`m	Ming so`m
1	2	3	4=3-2
1. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija	274356	367844	93488
2. Davriy xarajatlari	202962	291069	88107
3. Asosiy faoliyatining moliyaviy natijasi	71396	76901	5505
4. Umumxo`jalik faoliyatining moliyaviy natijasi	77134	88378	11244
5. Favquloddagi foyda yoki zarar	-	-	-
6. Soliq to`lagunga qadar umumiy moliyaviy natija	77134	88378	11244
7. Foydadan soliq va boshqa soliq ajratmalar	52761	58593	5832
8. Hisobot davridagi sof foyda	24373	29785	5412

Jadval ma'lumotlariga ko`ra, korxonada mahsulot sotishdan olingan sof tushum o'tgan yilga nisbatan 93 mln. 488 ming so`mga yoki 34% ga ko`paygan, lekin sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi ham o'tgan yilga nisbatan 88 mln. 107 ming so`mga yoki 43,4% ga oshib ketgan.

Mahsulot sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija 93.4 mln. so`mga yoki 34 foizga ko`paygan ( $367844 / 274356 \times 100$ ). Yalpi foydaning o`zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etgan:

- Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxini o`zgarishi —  $803889 - 780859 = 23.03$  mln. so`m yoki bu yalpi foydani kamaytirgan.

- Sotishdan olingan sof tushum o`zgarishi —  $1171733 / 1055215 \times 100 = 111$  foiz yoki  $1171733 - 1055215 = 116,5$  mln. so`m.

Jami omillar yig`indisi  $116,518 - 23,030 = 93,4$  mln. so`m.



«Odil-audit» mas'uliyati cheklangan jamiyati Jamiyat mahsulotlar sotishdan olinadigan tushumni kamayishiga sabab bo'lgan omillarni kelgusida tugatishga choralar ko'rishi lozim, chunki sof tushum moliyaviy natijani, ya'ni foydani ko'raytirishning eng asosiy manbaidir. Amaldagi korxonalar faoliyatida mahsulot sotishdan mo'maygina foyda olsada, boshqa faoliyatlardan zarar ko'rib, Yakuniy natijaning mo'ljaldagiday bo'lishiga salbiy ta'sir etmoqdalar.

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda yoki zarar bu mahsulotlar sotishdan olingan yalpi foydadan davr xarajatlarning ayirmasi va boshqa asosiy faoliyatdan daromadlar yoki zararlar xarajatlarning algebrik yig'indisidan iboratdir.

### 3-jadval

#### Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natijaning tahlili (ming so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan yil	Hisobot yil	Farqi (+,-)
1	2	3	4
1. Sotishdan olingan sof tushum	1055215	1171733	116518
2. Sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi	780859	803889	23030
3. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija	274356	367844	93488

Davr xarajatlari deyilganda bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi: sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va boshqa jarayonlar xarajatlardan iboratdir.

Sotish bilan bog'liq xarajatlarga: tovarlarni transpord vositalari yordamida tashish xarajatlari, tovarlarni sotishda qatnashuvchi xodimlarga mehnat xaki to'lash va ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar, savdo extiyojlari uchun foydalaniladigan binolar, inshootlar va qurilmalarni asrash xarajatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi, gaz, yoqilg'i, elektr energiyasi xarajatlari, arzon baxoli va tez eskiruvchan buyumlarning eskirishi, tovarlarni saqlash, ularga ishlov berish, qadoqdash va sortlarga ajratish xarajatlari, savdo reklamasi xarajatlari,

kassa arrarati va tushum inkassatsiyasi yuritish chiqimlari, sotish bozorini o`rganish bo`yicha xarajatlar va boshqa sotish bilan bog`liq sarflar tushuniladi.

Ma`muriy xarajatlarga esa: boshqaruv xodimlarini mehnat haki va ularga tegishli ijtimoiy sug`urta ajratmalari, xizmat engil avtotransporti va mikroavtobuslarni saqlash, ishlatish, yollash va ijaraga olish xarajatlari, xo`jalik yurituvchi subyekt va uning tarkibiy bo`linmalarini tashkil etish va ularni boshqarish xarajatlari, boshqaruvda xizmat qilayotgan texnik vositalar, aloka uzellari, hisoblash markazlari, signalizatsiya vositalari va boshqaruvga oid texnik vositalarni saqlash, foydalanish va ularga xizmat ko`rsatish xarajatlari, shaxarlararo va xalkaro telefon so`zlashuvlari uchun to`langan sarflar, ma`muriy boshqaruv extiyojlari uchun foydalanilayotgan binolarni amortizatsiyasi va saqlash xarajatlari, vazirliklar, idoralar va yuqori tashkilotlarga ajratmalar, boshqaruv xodimlarini xizmat safarlariga yuborish xarajatlari, korxonaning vakillik xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.

Boshqa operatsion xarajatlariga quyidagilar kiradi: kadrlar tayyorlash va ularni kayta tayyorlash xarajatlari, loyixa va ko`rilish-montaj ishlarida chalalikni bartaraf etish xarajatlari, maslaxat va axborot xizmatlariga xaq to`lash, auditorlik xizmatlari uchun to`lovlar, salomatlikni muxofaza qilish va xodimlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog`liq bo`lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlar xarajatlari, shaxar obodonchilik ishlari va qishloq xo`jaligiga yordam berish bilan bog`liq xarajatlar, komrensatsiya va rag`batlantirish tu- sidagi to`lovlar ish xaqini hisoblashda e`tiborga olinmaydigan to`lovlar va xarajatlar, ya`ni moddiy yordam, sog`liqni saqlash ob`ektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog`lomlashtirish lagerlari, madaniyat va srort ob`ektlarini asrash xarajatlari, vaktincha to`xtatib qo`yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va ob`ektlarini saqlash xarajatlari, bank xizmati uchun to`lovlar, xar xil xayriya jamg`armalari, ekologiya, sog`lomlashtirish, madaniyat, xalq ta`limi, ijtimoiy ta`minot, jismoniy tarbiya va shu kabi tashkilotlarga badallar, byudjetga majburiy to`lovlar, soliqlar va yig`malar va byudjetdan tashqari jam-

g`armalarga ajratmalar, zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa xarajatlardan iboratdir.

#### 4-jadval

#### Asosiy faoliyatdan moliyaviy natijalar tahlili

Ko`rsatkichlar	O`tgan yil	Hisobot yili	O`zgarish (+,-)
	Ming so`m	Ming so`m	Ming so`m
1	2	3	4=3-2
1. Sotishdan tushgan yalpi moliyaviy natija	274356	367844	93488
2. Sotish xarajatlari	97135	165932	68797
3. Ma`muriy xarajatlar	83859	89215	5356
4. Boshqa xarajatlar	21968	35922	13954
5. Asosiy faoliyatning moliyaviy natijasi	71396	76901	5505

Yalpi moliyaviy natija tarkibida ma`muriy xarajatlar ulushining 3,7% ga ko`payganligi ham e`tiborni qaratadi. Chunki boshqaruv xarajatlarining ko`rayishi ijobiy xolat deb bo`lmaydi.

Jamiyat mahsulot ishlab chiqarish va sotish faoliyatidan tashqari moliyaviy soxalar natijasidan ham foyda yoki zarar olishlari mumkin. Umumxo`jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar, bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasiga moliyaviy faoliyatdan ko`rilgan daromadlar qo`shiladi va zararlar ayriladi.

Soliq to`langunga qadar foyda, umumxo`jalik faoliyatidan olgan foydaga plyus yoki minus favqulodda (kutilmagan) vaziyatlardan ko`rilgan foyda yoki zarar sifatida aniqlanadi, bu quyidagicha ko`rsatilish mumkin;

Jadval ma`lumotlariga ko`ra, korxonada umumxo`jalik faoliyati ko`rilgan moliyaviy natija o`tgan yilga nisbatan 11 mln. 244 ming so`mga ko`paygan. Buning sababi asosiy ishlab chiqarish faoliyati natijasidan olingan foydaning 5 mln. 505 ming so`mga ko`payganligi ta`sir etgan. Korxonada favquloddagi foyda va zarar mavjud emas. Shunga ko`ra, soliq to`lagunga qadar umumiy moliyaviy natijasi hisobot yilida 88 mln. 378 ming so`mni tashkil qilgan. Bu ko`rsatkich

o'tgan yilga nisbatan 11 mln. 244 ming so'mga ko'pdir. Soliq to'lagunga qadar foyda hajmining ko'payganligi o'tgan yilga nisbatan faoliyatning yaxshilanganligidan dalolat beradi.

Demak , «Odil-audit» MCHJning faoliyatidan oladigan moliyaviy natijalari ijobiy ko'rsatkichlarni ko'rsatmoqda. Albatta xarajatlar summasi ham yildan-yilga oshib bormoqda, ammo daromadlarning o'sishi surati xarajatlarning o'sish sur'atidan yuqoriligi Jamiyatning barqaror foyda bilan ishlashini ta'minlaydi.

### **3-Bob. «Odil-audit» MCHJda moliyaviy natijalar auditi va ularni takomillashtirish**

#### **3.1. Moliyaviy natijalar auditi rejasini tuzish va tashkil etish**

Auditning samaradorligi uni to'g'ri rejalashtirishga bevosita bog'liqdir. Auditorlik tashkilotlari turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlarini tekshiradi

Auditning rejalashtirilishi ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib o'z ichiga auditorlik tekshiruvini umumiy hajmini aniqlash, audit dasturini tuzish, auditda qo'llaniladigan usullarni belgilash, tekshirish muddatlarini, ko'rsatiladigan xizmatlarni va audit xatarini aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Maxsus adabiyotlarda auditni rejalashtirishga auditning strategiyasi va taktikasini aniqlash deb xam e'tirof etilgan. Audit strategiyasi qo'yilgan maqsad va vazifalarni ma'lum ketma-ketlikda va aniq istiqbolga asoslanib bajarilishini ta'minlansa, audit taktikasi esa qo'yilgan maqsadlarga erishishning shakl va usullarini ifodalaydi. Auditni rejalashtirishdan asosiy maqsad audit jarayonidagi umumiy ish hajmini aniqlash, tekshirish muddatlarini belgilash, auditni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilg'or usullar tarkibini, ko'rsatiladigan auditorlik xizmati qiymatini hamda auditorlik xatarini aniqlashdan iborat. Auditni rejalashtirish «Auditni rejalashtirish» nomli 3-sonli AFMS va «Auditorlik isboti va xatari» nomli 9-sonli AFMS talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu standartlarga asosan auditni rejalashtirishda quyidagi tamoyillar hisobga olinishi kerak bo'ladi: rejaning to'liqligi; rejaning uzluksizligi; rejaning ixchamligi.

Audit standartlariga asosan uning rejalashtirilishi quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi: auditning dastlabki rejasini tuzish; auditning umumiy rejasini tuzish; audit dasturini tuzish.

Auditning dastlabki rejasi auditorlik tekshiruvini o'tkazishga rozilik berishdan va auditorlik shartnomasidan oldin tuziladi. Ma'lumki ko'rmulkchilikka asoslangan korxonalarining faoliyatlari, ulardagi jarayonlar, audit ob'ektlari xar xil bo'ladi. Shuning uchun auditorlik tashkilotlari auditning dastlabki rejasini tuzadi. Ushbu rejadan xo'jalik yurituvchi subyektning turi va faoliyat yo'nalishi; korxona-

ning tarkibiy tuzilishi va boshqarilishi; korxonada mablag`larining turlari va shakllanish tartibi; moliyaviy xo`jalik ko`rsatkichlari va ularning bajarilishi; korxonada ichki nazoratni tashkil etilishi; xo`jalik yurituvchi subyektning boshqa shaxslar bilan o`zaro hisob-kitoblari kabi masalalar o`z ifodasini topadi.

Yuqoridagi masalalarni o`rganish va auditning dastlabki rejasini tuzishda auditorlik tashkiloti korxonaning nizomi, korxonada faoliyatini qayd etishga asos bo`lgan hujjatlar, hisob siyosatini aks ettiruvchi hujjatlar, moliyaviy hisobot, bank moliya, soliq organlarining xo`jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga oid ma`lumotnomalari, korxonalar o`rtasida tuzilgan shartnomalar va ularning bajarilishi ma`lumotlaridan foydalanadi. Yig`ilgan ma`lumotlar tahlili natijasi va dastlabki rejaga asosan audit o`tkazishga rozilik oladi va shartnoma tuziladi.

Auditorlik shartnomasining maqsadi va qo`yilgan vazifalariga qarab auditning umumiy rejasini tuziladi. Auditning umumiy rejasida tekshirishga mo`ljallanayotgan xo`jalik yurituvchi subyektning nomi, audit davri, auditga ajratilgan muddat, auditorlik guruhining tarkibi, rejalashtirilayotgan ishlarning turi, uning bajaruvchilari ko`rsatiladi. Auditning umumiy rejasida auditorlik isboti va auditorlik xatarining darajasi ham keltiriladi. Ushbu reja auditorlik guruhi raxbari tomonidan imzolandi va auditorlik tashkiloti raxbari tomonidan tasdiqlandi.

Audit rejasiga asosan audit dasturi tuziladi. Ushbu dasturda rejadagi vazifalarga yanada aniqliklar kiritilib bajaruvchilar o`rtasida taqsimlanadi. Dasturda audit obyektlari, ularni tekshirishda qo`llaniladigan va auditorlik isbotini ta`minlaydigan «usullar», auditorlarning ishchi hujjatlari keltirilgan bo`ladi. O`zining mazmun-mohiyatiga ko`ra, auditorlik dasturi audit o`tkazish uchun uslubiy manba va nazorat vositasi bo`lib xizmat qiladi. Auditor audit o`tkazish jarayonida ayrim operatsiyalarni chuqurroq tekshirish zaruriyati kelib chiqsa, bunday hollarda audit dasturiga tegishli o`zgarishlar kiritiladi va qabul qilingan tartiblarga asosan hujjatlashtiriladi.

Audit rejasini va dasturi asosida o`tkazilgan tekshiruvlar ma`lum tartiblarda umumlashtirilib boriladi va hujjatlashtiriladi. Ushbu hujjatlar o`z navbatida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosalarini tuzishga asos bo`lib xizmat qiladi.

Auditor moliyaviy natijalarni shakllanishini quyidagi buxgalteriya hisobi schyotlaridagi yozuvlar orqali tekshiradi: 9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad», 9300-«Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar hisobi schyotlari», 9500-«Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar hisobi schyotlari», 9700-«Favquloddagi foyda (zarar)lar hisobi schyotlari», 9800-«Soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydaning ishlatilishi hisobi schyotlari», 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar» va boshqa schyotlar.

Shu maqsadlarda auditor 9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad» schyotining debetidagi yozuvlar bilan 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar» schyotining kreditidagi yozuvlarni o'zaro solishtirib ko'radi. Ushbu ma'lumotlar Bosh kitob, aylanma qaydnomalari va «Moliyaviy hisobot»dagi 2-shakl: «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Daromadlarning auditori jarayonida asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar, ya'ni asosiy vositalarni sotishdan olingan daromadlar (9310-schyot), boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar (9320-schyot), undirilgan jarimalar (9330-schyot), boshqa asosiy faoliyatning daromadlari (9340, 9390-schyot bo'yicha) tekshirilib chiqiladi. Undirilgan jarimalar pul mablag'larini hisobga olib borilgan schyotlarda (5110, 5210, 5220) ifodalangan bo'ladi. Oy oxirida ushbu daromadlar ham 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar» schyotiga o'tkazilgan bo'ladi. Auditor ushbu operatsiyalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida to'g'ri aks ettirilganligiga e'tiborini kuchaytirishi kerak.

Moliyaviy natijalarni audit qilish jarayonida korxonaning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va tegishli tavsiyalar beriladi. Korxonaning moliyaviy xolatini baxolovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin: korxonaning mulkiy holati; korxonaning balansining likvidligi; korxonaning to'lov qobiliyati; korxonaning moliyaviy barqarorligi; korxonaning moliyaviy natijalari; korxonaning rentabellik darajasi.

Moliyaviy natija - hisobot davridagi foyda yoki zararlar. Rentabellik – samaradorlik ko`rsatkichi hisoblanadi. Auditor moliyaviy natijani tekshirish jarayonida xarajatlar tarkibiga kiritilgan foyda (zarar) ko`rsatkichiga ta'sirini aniqlashi kerak.

Korxonada foydasi muhim sifat ko`rsatkichlaridan bo`lib resurslardan samarali foydalanganlikni ifodalaydi. Olingan foyda miqdoriga qarab aktivlarning rentabelligini bilish mumkin. Audit jarayonida aktivlarning turlari bo`yicha rentabellik darajasi tahlil qilingan foydani yanada oshirishga qaratilgan asosli tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, «Odil-audit» MCHJda tashkil etiladigan moliyaviy natijalar auditori mamlakatimizdagi milliy standartlarga muvofiq amalga oshiriladi, hamda jamiyatning faoliyatiga xolisona baho beriladi.

### **3.2. “Odil-audit” MCHJda moliyaviy natijalar auditorini o`tkazish tartibi**

“Odil-audit” MCHJda tashkil etiladigan moliyaviy natijalar auditori milliy qonunchilikda belgilangan tartib-qoidalar asosida amalga oshiriladi. Bunda tegishli hisobotlar, schyotlar bo`yicha ma'lumotlar, dastlabki hujjatlar sinchkovlik bilan o`rganiladi. Bundan tashqari jamiyatning hisobotlarida shakllantirilgan foyda va zarar ko`rsatkichlarining to`g`ri va aniq shakllan-tirilganligi tekshiriladi va tasdiqlanadi. Quyida jamiyatning moliyaviy natijalarini auditorlik tekshiruvidan o`tkazish tartibi keltirilgan.

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlarning shakllanishi «Asosiy xo`jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-sonli BHMS bilan tartibga solinadi.

Asosiy xo`jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar — xo`jalik yurituvchi subyektning odatdagi faoliyati davomida vujudga keladigan davr ichida mulk egalari o`z sarmoyalariga badali bilan bog`liq bo`lgan ko`rayishlarni istisno etganda, o`z sarmoyasi ko`rayishiga olib keladigan tushumlarga aytiladi. Tayyor mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ish va ko`rsatilgan xizmatlar. olingan daromadlar, shuningdek sotilgan tovarlarning qaytarilishi, sotish narxlaridan chegirmalar to`g`risidagi axborotlar quyidagi schyotlarda aks ettiriladi:



9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad»; 9050-«Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar».

Yuqorida keltirilgan 9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad» schyoti tranzit schyotlar hisoblanib, ko'rayishi kreditida kamayishi debetida aks ettiriladi.

Hisobot davriga tegishli bo'lgan oldingi davrda olingan daromadlar summasiga pul mablag'larini hisobga oladigan schyotlar debetlanib, 6210-«Muddati uzaytirilgan daromad» yoki 6310-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar» schyotlari kreditlanadi.

Sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari, mol etkazib beruvchi va buyurtmachilarga yuklab yuborilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar bo'yicha taqdim etilgan hisob hujjatlari summasiga 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyota debetlanib 9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad» schyoti kreditlanadi.

Kelgusida yuklab jo'natilgan tovar oldindan olingan avanslar summasi ushlab qolinganda 6210 va 6310-schyotlar debetlanib 4010-schyot kreditlanadi. Yuborilgan mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar uchun pul mablag'lari tushganda pul mablag'larini hisobga oladigan schyotlar debetlanib 4010-«Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» schyoti kreditlanadi.

Korxonaning yakuniy balans foydasi (zarari) hisobot davrining oxirida 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» schyotida aniqlanadi.

9030 - «Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlardan olingan daromad» schyotining krediti hisobot davri oxirida quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan 9900-schyotga o'tkaziladi:

*Debet 9020-schyot*

*Kredit 9900-«Yakuniy moliyaviy natijani hisobga oluvchi schyotlar».*

9040-«Sotilgan tovarlarning qaytishi» va 9050-«Xaridor va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar», schyotlarida sotilgan tovarlarning qaytarilishi, shartnoma shartlariga binoan sotishda chegirma, shuningdek sotilgan mahsulotdan brak aniqlanishi natijasida narxidan chegirma ana shu kabilarni hisobga olish uchun

belgilanadi. Bu schyot kontrpassiv bo`lib, uning debet oboroti moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobotning yalpi sotilgan mahsulotdan tushgan tushum summasidan chiqarib tashlanadi.

Asosiy faoliyatdan olingan daromaddarni hisobga oladigan schyotlar bo`yicha analitik hisob sotilgan mahsulot (tovar), bajarilgan ish va ko`rsatilgan xizmatlarni har bir turi bo`yicha yuritiladi. Bundan tashqari, bu schyotlar bo`yicha analitik hisob ishlab chiqarishni boshqarish maqsadida sotilish jug`rofiy segmentlari va boshqa segmentlari bo`yicha yuritilishi mumkin.

Xizmat ko`rsatish mijoz bilan avvaldan tuzilgan shartnomalarga asosan amalga oshiriladi. Bu shartnomalarda ko`rsatilgan xizmatning muddati, miqdori, qiymati va hisob-kitob shartlari aks ettiriladi. Auditor shartnomalardagi shart-sharoitlarni to`liq aks ettirilishini tekshiradi.

«Odil-audit» MCHJ asosiy faoliyatlari bo`yicha boshqa daromadlarni ham olishi mumkin. Bu daromadlar moddalari va turlari «Xarajatlar tarkibi to`g`risida»gi nizomga muvofiq quyidagi elementlardan tashkil torgan: shartnoma talablarini bajarmaganligi uchun olingan jarima, penya va boshqa mablag`lar; hisobot yilida aniqlangan o`tgan yillarda olingan foyda summasi.

Ushbu muomalalarni amalga oshirish natijasida tushgan daromad summalarining buxgalteriya hisobi 9300 schyotlarda yuritiladi.

Bular tranzit schyotlar bo`lib, passiv schyotlarga mansub. Yuqoridagi schyotlarning kredit oboroti tegishli manbalar hisobidan foydaning ko`rayishi, debet oboroti esa ularning hisobdan chiqarilishini ko`rsatadi va hisobot davri boshiga qoldig`i qolmaydi.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda va zararlar alohida daromad va xarajatlar guruhiga kiritiladi. Bu foyda va zararlar korxonaning asosiy faoliyati bilan bevosita bog`liq emas.

Buxgalteriya hisobida moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda alohida, zarar alohida schyotlarda hisobga olinadi.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda (daromad) 9500 schyotlarda hisobga olinadi:

Bular tranzit schyotlar bo`lib passiv schyotlarga mansub. Yuqoridagi schyotlarning kredit oborotlari tegishli manbalar hisobidan moliyaviy foydaning ko`rayishini, debet oboroti esa ularning hisobdan chiqarilishini ko`rsatadi va hisobot davri boshiga qoldig`i qolmaydi.

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan foydaning shakllanishi 2-sonli BHMS «Asosiy xo`jalik faoliyatidan daromadlar»; 6-sonli BHMS «Ijara hisobi»; 12-sonli BHMS «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» bilan tartibga solinadi.

9520-«Dividendlar ko`rinishidagi daromadlar» schyotida O`zbekiston Respublikasi hududi va chet ellarda ulush qo`shish yo`li bilan boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishdan olingan daromadlar, aksiyalar bo`yicha dividendlar, obligatsiya va boshqa qimmatli qog`ozlar bo`yicha daromadlar aks ettiriladi.

9690-«Moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa daromadlar» schyotida yuqoridagi schyotlarda aks ettirilmagan muomalalardan olingan foyda aks ettiriladi.

Korxonaning asosiy faoliyati bilan bevosita bog`liq bo`lmagan moliyaviy xarajatlar quyidagi schyotlarda hisobga olinadi: 9610-«Foizlar ko`rinishidagi xarajatlar», 9620- «Kurs farqlaridan zararlar», 9630--«Qimmatli qogozlarni chiqarish va tarqitish bo`yicha xarajatlar», 9690-«Moliyaviy faoliyat bo`yicha boshqa xarajatlar».

Bular tranzit schyotlar bo`lib aktiv schyotlarga mansub. Yuqoridagi schyotlarning debet oborotlari tegishli yo`nalishdagi sodir bo`lgan moliyaviy xarajatlarni, kredit oborotlari esa ularning hisobdan chiqarilishini ko`rsatadi va hisobot davri boshiga qoldiq qolmaydi.

Moliyaviy faoliyatdan sodir bo`ladigan xarajatlarning hisobi 6-son BHMS «Ijara hisobi», 12-son BHMS «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» bilan tartibga solinadi.

9610-«Foizlar ko`rinishidagi xarajatlar» schyotida bank kreditlari, mol yuboruvchilarga va qarzlarni bo`yicha to`lanadigan foiz xarajatlari hisobga olinadi.

9620-«Kurs farqlaridan zararlar» schyotida xorijiy valyutalar kursidagi salbiy farqi va xorijiy valyuta muomalalari bo`yicha zararlar hisobga olinadi.

9630-«Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar» schyotida qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar aks ettiriladi.

Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar summasini xizmat ko'rsatgan tashkilotlarga o'tkazib berish hisoblanganda 9630-«Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish bo'yicha xarajatlar» schyoti debetlanib, 6990-«Boshqa majburiyatlar» schyoti kreditlanadi. Ushbu summa o'tkazib berilganda 6990-schyot debetlanib pul mabblamarini hisobga oladigan schyotlar kreditlanadi.

9690-«Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar» schyotida moliyaviy qo'yilmalar, pul mablag'aari va hisob- kitoblarni hisobga oladigan schyotlar bilan korrespondentsiyalangan holda qimmatli qog'ozlar, shu'ba korxonalar va shu kabilarga qo'yilgan mablag'lrni qaytadan baholashdan ko'rilgan zararlar va moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar hisobga olinadi.

Korxonalar moliyaviy faoliyatdan ham daromad oladi, korxonalar kapitalini boshqa xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga jalb qilish tufayli olingan daromadlar, foizlar ko'rinishidagi daromadlar, ijara operatsiyalaridan olingan daromadlar, qimmatli qog'ozlarga jalb qilingan mablag'larning qayta baholanishidan olingan daromadlar, valyuta schyotidagi mablag'larning ijobiy kursidan olingan daromadlar va boshqa moliyaviy faoliyatning daromatlari kiradi. Audit jarayonida ushbu daromadlarning qonuniyligi 9510, 9520, 9530, 9540, 9550, 9590-schyotlar orqali tekshirilib chiqiladi. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar ham oy oxirida 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» schyotiga o'tkazilgan bo'ladi. Auditor ushbu operatsiyalarning to'g'riligini ma'lum hujjatlarga asosan tekshiradi.

Shunday qilib turli mulkdagi korxonalarining daromatlari ma'lum ketma-ketliqla audit qilinadi va uning natijalari auditorlik hisoboti hamda xulosasida o'z aksini topadi.

Favquloddagi foyda va zararlarining shakllanishi 3- sonli BHMS «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» bilan tartibga solinadi va milliy standartga asosan:

favquloddagi foyda va zararlar — bu korxonaning xo`jalik faoliyatida nihoyatda kam sodir bo`ladigan, uning uchun odat bo`lmagan va korxonada boshqaruv qarorlarini qabul qilish natijasi bilan bog`liq bo`lmagan voqealardan olinadigan daromad va xarajatlardir.

U yoki bu moddani favquloddagi foyda yoki zararlar tarzida aks ettirilishi uchun quyidagi uchta talabga javob berishi kerak: 1.Korxonaning odatdagi xo`jalik faoliyatiga mos emasligi, 2.Bir necha yillar davomida takrorlanmasligi kerak, 3.Korxonaning boshqaruv xodimlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga bog`liq emasligi.

Demak quyidagi moddalar favqulodda foyda va zararlarga kiritilmaydi: dargumon debitor qarzlarni hisobdan chiqarilishi yoki shu maqsad uchun tashkil qilingan rezerv; Valyuta muomalalardan yoki kurslar farqidan olingan daromad yoki yo`kotishlar; narxlardagi tuzatishlar; aktivlar qiymatini qaytadan baholashdan olingan natija, soliq summalari bo`yicha tuzatishlar; oldingi yillar foydasi yoki zarari.

Favquloddagi foyda va zararlarni alohida ajratib hisobga olishdan maqsad hisobot davri ichida korxonada faoliyati natijasini ob`ektiv aks ettirishdir.

“Odil-audit” MCHJ bo`yicha hisobot davrida favqulodda foyda va zararlar aniqlanmagan.

Favqulodda voqealar sodir bo`lganda bu voqealardan olingan foyda va zararlar quyidagi schyotlarda hisobga olinadi: 9710-«Favqulodtsagi foydalar»; 9720-«Favquloddagi zararlar».

Bular tranzit schyotlar bo`lib 9710-passiv, 9720-aktiv schyotlarga mansubdir.

Favqulodda voqealardan olingan daromadlar summasiga 9710-«Favquloddagi foydalar» schyoti kreditlanib turli schyotlar debetlanadi. Sodir bo`lgan zarar summasiga esa 9720-«Favquloddagi zararlar» schyoti debetlanib turli schyotlar kreditlanadi.

Bu schyotlarning debet va kredit oborotlari hisobot davri oxirida quyidagi buxgalteriya yozuvlar bilan Yakuniy moliya viy natijaga o`tkaziladi:

Favqulodda voqealardan olingan foyda summasiga:

*Debet 9710-«Favquloddagi foydalar»,*

*Kredit 9900-«Yakuniy moliyaviy natija».*

Favqulodda voqealardan sodir bo`lgan zarar summasiga:

*Debet 9900-«Yakuniy moliyaviy natija»,*

*Kredit 9720-«Favquloddagi zararlar».*

Foyda har bir korxonaning muhim sifat ko`rsatkichi hisoblanadi. Foydadan soliq to`lanadi, ustav kapitaliga ajratmalar qilinadi. Foyda iqtisodiy kategoriya sifatida xo`jalik yurituvchi subyektga qarashli mablag`ning oshishini ifodalaydi. Foyda korxonaning sifat ko`rsatkichi hisoblanadi. Foyda barcha daromadlar bilan barcha xarajatlar o`rtasidagi farqlan iborat.

Foydaning asosiy manbasi — bu korxonaning asosiy faoliyati natijasidir. Foydani ko`raytirish barcha korxonalarining muhim vazifasi hisoblanadi. Foyda tufayli korxonalar faoliyati kengayadi, o`zaro hisob-kitoblar vaqtida amalga oshiriladi, ishchi-xizmatchilar qo`shimcha moddiy rag`batlantiriladi. Foyda ko`rsatkichi ta`sischilar, mulk egalari, davlat byudjeti va bank tomonidan doimiy ravishda nazorat qilib boriladi.

Foyda auditning muhim ob`ekti hisoblanadi. Auditor tuzilgan shartnomaga asosan foydaning to`g`ri hisoblanganligini, yil davomida qonun talablari asosida ishlatilganligini tekshiradi. Bunday tekshiruv 8710-«Hisobot davrining taqsimlanmagan foydasi (qorlanmagan zarari)», 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» va boshqa schyotlar orqali amalga oshiriladi.

Auditor foyda ko`rsatkichining to`g`ri hisoblanganligini quyidagi operatsiyalar orqali tekshiradi: daromad turlari bo`yicha operatsiyalar; xarajat turlari bo`yicha operatsiyalar; yil davomida ishlatilgan foyda bo`yicha operatsiyalar.

Foydaning auditi 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» schyotidagi buxgalteriya yozuvlarini tekshirish orqali amalga oshiriladi.

Audit jarayonida moliyaviy natijalar bo`yicha ko`rsatkichlar (daromadlar, xarajatlar, foyda) «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Moliyaviy natijalar to`g`risida hisobot» (2- shakl), «Pul oqimlari to`g`risida hisobot» (4-shakl), «Xu-

susiy kapital to'g'risida hisobot» (5-shakl) ma'lumotlari bilan o'zaro taqqoslash yo'li bilan tekshirib ko'riladi.

Korxonaga kelib tushgan va sarflangan pul mablag'lari «Pul oqimlari to'g'risida hisobot»da ifodalansa, daromadlar, xarajatlar, foyda ko'rsatkichlari esa «Moliyaviy natijalar tutrisida»gi hisobotda o'z aksini torgan bo'ladi. Byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan va to'langan soliqlar 2-shaklga ilova qilingan maxsus ma'lumotnomada keltiriladi.

Auditor ushbu hujjatlardagi ma'lumotlarni buxgalteriya hisobining joriy ma'lumotlari bilan o'zaro taqqoslab tekshiradi.

Iqtisodiy isloxlarning chuqurlashib borishi korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan ko'rsatkichlar orqali baxolashni taqozo qiladi. Shunday ko'rsatkichlardan biri korxonaning marjinal foydasidir. Moliyaviy natijalar auditi jarayonida mazkur ko'rsatkichni aniqlash va unga baxo berish muhim hisoblanadi.

Korxonaning marjinal foydasini aniqlash uchun yalpi daromaddan o'zgaruvchan xarajatlar olib tashlanadi. Chiqqan natija esa marjinal foydani beradi. Ushbu ko'rsatkichdan doimiy xarajatlar olib tashlangandan so'ng esa korxonada ixtiyoridagi foyda qoladi. Marjinal foyda tamoyili asosida xalqaro amaliyotda keng qo'llanilib kelinayotgan xarajatlar hisobining «Direkt-kosting» usuli yotadi. Mazkur usulning afzalligi shundan iboratki, auditor xarajatlar va moliyaviy natijalarni tekshirganda mahsulot realizatsiyasidan tushgan tushumlarda o'zgaruvchan xarajatlarning salmog'ini, ularni rasaytirish hamda marjinal foydani ko'raytirishga qaratilgan asosli tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Foyda ko'rsatkichining auditi natijalari auditorlik hisoboti va xulosasida o'z aksini topadi.

Moliyaviy hisobot auditining matssadi moliyaviy hisobot ma'lumotlarining to'liqligi va ishonchliligini, ular amaldagi tsonunchilikka muvofiqligini tekshirishdan iborat.

Auditorlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini

to'ldirish bo'yicha qoida»ga muvofiq moliyaviy hisobotni mulkchilikning barcha shakllariga mansub, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra yuridik shaxs hisoblangan korxonalar va tashkilotlar (bundan sug'urta tashkilotlari va banklar mustasno), shuningdek mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek mustaqil balans va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan, soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchi hisoblanadigan alohida bo'linmalar taqdim etishi kerakligini bilishi kerak.<sup>7</sup>

Agar asosiy fondlarni qayta baholash hisobot yilining birinchi sanasi holatiga o'tkazilsa, qayta baholash natijalarining ko'rsatkichlari hisobot yilining boshiga shakllanadigan moliyaviy hisobotga qabul qilinadi. Bunda o'tgan yilning oxiridagi ko'rsatkich hisobot yilining boshidagi ko'rsatkichga mos kelmasligi, asosiy vositalarni hisobot yilining birinchi sanasiga o'tkazilgan qayta baxolashning natijasi deb tushuniladi va joriy davrning moliyaviy hisobotidagi tushuntirish xatida bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» Qonunining 10-moddasida ko'rsatilgan yuridik shaxslar soliq organlarida auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin 15 kun davomida, lekin hisobot yilidan keyingi yilning 15 mayidan kechiktirmay, moliyaviy hisobotning to'g'riligi to'g'risida auditorlik xulosasi nusxasini taqdim etadilar.<sup>8</sup>

Moliyaviy hisobot shakllarida barcha rekvizitlar va nazarda tutilgan ko'rsatkichlar to'ldirilishi kerak. Korxonada tegishli aktivlar, passivlar, operatsiyalar mavjud emasligi sababli biror-bir modda (satrlar, ustunlar) to'ldirilmagan taqdirda, ushbu modda (satr, ustun) ustiga chizib qo'yiladi.

Moliyaviy hisobotni tuzish chog'ida O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Fukarolik kodeksi, Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga, shuningdek bux-

---

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrda 140-son buyrug'i bilan tasdiqlangan «Moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish bo'yicha qoida»

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida» Qonunining 10-moddasi



galteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish masalalari bo'yicha boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanish lozim.

Korxonalar balansining moddalari aktivlar va majburiyatlarning puxta o'tkazilgan inventarizatsiyasi bilan asoslangan bo'lishi kerak. Inventarizatsiya O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999 yil 19 oktyabrda EG/17—19—2075-son bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) (ro'yxat rakami 833, 1999 yil 2 noyabr)da belgilangan tartibda o'tkaziladi. Bunda yillik moliyaviy hisobotni taqdim etishga qadar doimiy ishlab to'rgan inventarizatsiya komissiyalari tomonidan inventarizatsiya davomida aniqlangan, bo'liklar xaqiqiy mavjudligining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga qaraganda tafovutlari tartibga solinishi kerak. Debitorlik va kreditorlik qarzlari ham inventarizatsiyadan o'tkazilishi lozim, ular o'zaro hisob-kitoblar saldosi tasdiqlaydigan solishtirish dalolatnomalari yoki xatlar bilan rasmiylashtiriladi. O'tkazilgan inventarizatsiyalar soni va natijalari, shuningdek ularni o'tkazmaslik sabablari yillik moliyaviy hisobotga ilova qilinadigan tushuntirish xatida aks ettirilishi kerak.

Moliyaviy hisobot shakllariga rahbar va bosh buxgalter imzo chekadi, imzolar muhr bilan tasdiqlanadi.

Moliyaviy hisobotda chiqarish va ustiga yozishlar bo'lmasligi kerak. Xatolar tuzatilgan taqdirda tegishli qaydlar qilinadi, ularni moliyaviy hisobotlarga imzo chekkan shaxslar tasdiqlab, tuzatish sanasini ko'rsatadilar.

Joriy hamda o'tgan yil hisobot ma'lumotlaridagi (ular tasdiqlanganidan keyin) tuzatishlar uning ma'lumotlarini buzishlar aniqlangan hisobot davri uchun tuzilgan hisobotda amalga oshiriladi, bunda tuzatishlar hisobot davri (chorak yil boshidan) uchun ma'lumotlarga kiritiladi.

Yillik moliyaviy hisobotni tekshirish chog'ida daromadlarni yashirish yoki ular bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlarni davr xarajatlariga (yoki muomala chiqimlariga) kiritish natijasida moliyaviy natijalarni kamaytirib ko'rsatish aniqlangan xolda buxgalteriya hisobi va o'tgan yil uchun moliyaviy hisobotga

tuzatishlar kiritilmaydi, balki joriy yilda hisobot davrida aniqlangan o'tgan yillar foydasi sifatida aks ettiriladi.

Demak, auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobotda aniqlangan buzib ko'rsatishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni majburiy audit o'tkazishda moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik xulosasiga, turli maqsadlar yo'nalishida o'tkazilgan tashabbusli audit o'tkazishda esa — auditorlik hisobotiga kiritishi lozim.

### **3.3. Moliyaviy natijalar auditining natijalarini umumlashtirish, hisobot va xulosa yozish**

Auditorlik hisobotini va xulosasini shakllantirish audit rejasi va dasturining barcha bo'limlari bo'yicha o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va baholash jarayonida vujudga keladi.

Audit natijalarini umumlashtirish ishlari asosan quyidagilarni o'z ichiga oladi: ishchi hujjatlarni sharxlash va yakuniy ishchi hujjatlarni tayyorlash; aniqlangan kamchiliklarning jiddiylik darajasini baholash; auditorlik dalillarining etarliligini baxolash; faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar ritsiri bilan bog'liq omillarni baholash; buxgalteriya hisobotidagi axborotlarni taqdim qilish va bayon qilish; hisobot tuzilganidan so'ng sodir bo'lgan hodisalarni baholash; tekshiruv natijalari bo'yicha auditorning mijoz-korxonalar rahbariyatiga taqdim qiladigan yozma axborotini tuzish; auditorlik hisoboti va xulosasini tuzish.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazish chog'ida asosan tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning dastlabki hujjatlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan haqiqiy axborotlar tahlil qilinadi va baholanadi. Faqat ayrim hollardagina auditorlar taxmin va hisob-kitoblarga asoslangan moliyaviy axborotlarni baholaydilar.

Ta'kidlash joizki, tekshiruv natijalari va xo'jalik yurituvchi subyekt mutaxassislarining hisob-kitoblarini baholashda auditorlar ma'lum darajada professional ehtiyotkorlikka rioya qilishlari zarur.

Auditor quyidagi hollardagi kabi, katta nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatuvchi holatlarni obyektiv baholashi zarur: jamiyat xodimlariga ma'lum

boʻlgan, ammo auditor tomonidan ochilmagan xatolarni aniqlash faktlari; tekshiruv uchun zarur boʻlgan, auditorga oʻz vaqtida taqdim qilinmagan dastlabki hujjatlar yoki maʼlumotlarga doir xoʻjalik muomalalari; mutaxassislarining hisob-kitoblaridagi nomuvofiqliklar; inventarizatsiya natijasida aniqlanib, dalolatnoma va taqqoslash qaydnomalari bilan rasmiylashtirilgan, lekin etarli darajada tahlil qilinmagan va tuzatilmagan katta tafovutlar; katta tafovutlarning tasdiqlanmaganligi va auditor soʻrovlariga kutilgan javoblar olinmaganligi; tekshiruv uchun tanlab olingan, zarur dastlabki hujjatlar yoki tegishli ruxsat etuvchi koʻrsatmalar taqdim qilinmagan xoʻjalik muomalalari.

Auditor toʻplangan dalillar etarliligini baxolashda ushbu xolatlar aniqlangan bosqichni (rejalashtirish, audit oʻtkazish) hisobga olishi kerak. Shuningdek katta xatolar xatarini dastlabki baxolash va batafsil tekshirish rejalari xam eʼtiborga olinishi lozim.

Agar bunday xolatlar rejalashtirish bosqichida aniqlangan va hisobga olingan boʻlsa, unda auditor toʻrlangan dalillarning etarliligiga va rejalashtirilgan hamda qoʻshimcha auditorlik amallarini bajarishning maqsadga muvofiqligiga baxo berishi zarur. «Subyekt raxbariyatining taqdimotlari» nomli 580-sonli AXSga asosan oxirgi auditorlik dalillari sifatida xoʻjalik yurituvchi subyekt raxbariyatining taqdimoti auditor tomonidan olinadi va ishchi hujjatlar tarkibiga kiritiladi.

Auditor subyekt raxbariyati moliyaviy hisobotni taqdim etish boʻyicha moliyaviy hisobot xaqiqiy taqdim etilishi yuzasidan oʻz masʼuliyatini tan olganligi va moliyaviy hisobot subyekt raxbariyati tomonidan tasdiqlanganligi boʻyicha dalil olishi lozim. Auditor raxbariyat bunday masʼuliyatni tan olishi va moliyaviy hisobotni tasdiqlashi yuzasidan dalilni direktorlar kengashi yoki shunga oʻxshash idora majlisining tegishli bayonnomalaridan yoki subyekt raxbariyatining yozma taqdimotnomalaridan yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasidan olishi mumkin.

Oqilonalik nuqtai nazaridan boshqa etarli boʻlgan tegishli dalillar mavjuddigi kutilmayotgan holda, auditor subyekt raxbariyatidan moliyaviy hisobot uchun

muhim bo'lgan masalalar bo'yicha yozma taqdimotlar olishi lozim. Og'zaki taqdimotlar subyekt raxbariyati tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan taqdirda, raxbariyat bilan auditor o'rtasida tushunmovchiliklar vujudga kelish extimoli kamayadi.

Raxbariyatdan so'rab olinadigan yozma taqdimotlar, majmui yoki alohida ko'rinishda, moliyaviy hisobot uchun muhim masalalar doirasi bilan cheklanishi mumkin. Muayyan moddalar yuzasidan auditor ular muhimligini tushunganligi to'g'risida subyekt raxbariyatiga xabar berish extiyoji raydo bo'lishi mumkin.

Audit o'tkazish raytida raxbariyat o'z tashabbusi bilan yoki aniq belgilangan so'rovnomalar bo'yicha auditorga juda ko'r taqdimotlar taqdim etadi. Bunday taqdimotlar moliyaviy hisobot uchun muhim masalalarga tegishli bo'lgan taqdirda, auditor quyidagilarni amalga oshirishi lozim: subyekt ichidagi yoki uning tashqarisidagi manbalardan tasdiqlovchi auditorlik dalillarini izlashi; subyekt raxbariyatining taqdimotlari oqilonaligi va ular olingan boshqa auditorlik dalillariga, jumladan boshqa taqdimotlarga izchilligiga baxo berish; subyekt taqdimotlarini tayyorlovchi shaxslar alohida masalalar bo'yicha qanchalik yaxshi xabardor ekanligini ko'rib chiqish.

Subyekt raxbariyatining taqdimotlari auditor asosli xolda olishni kutayotgan boshqa auditorlik dalillari o'rnini bosa olmaydi. Masalan, aktivlar tannarxi yuzasidan subyekt raxbariyatining taqdimotlari, auditor ushbu tannarx bo'yicha odatda olishni ko'zlagan auditorlik dalili o'rnini bosa olmaydi. Agar auditor moliyaviy hisobotga muhim ta'sir ko'rsatadigan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan masala bo'yicha etarli bo'lgan tegishli auditorlik dalilini ololmagan va bunday dalilni olish oson deb taxmin kilgan taqdirda, ushbu masala bo'yicha subyekt raxbariyatining taqdimoti olinganda xam, bu audit ko'lamini cheklash deb hisoblanadi.

Muayyan xolatlarda, subyekt raxbariyatining taqdimotlari, natijalarni oqilona kutish bo'yicha mavjud bo'lgan yagona auditorlik dalili bo'lib hisoblanadi. Masalan, auditorning subyekt raxbariyatining muayyan investitsiyalarni ular

qiymati uzoq muddatda oshgunga qadar ushlab turish maqsadlarini tasdiqlash uchun boshqa auditorlik dalillarini kutishga extiyoji yo`q.

Agar subyekt raxbariyatining taqdimotlari boshqa auditorlik daliliga zid bo`lsa, auditor vaziyatlarni o`rganib chiqishi va lozim bo`lsa, subyekt raxbariyati tomonidan qilingan boshqa taqdimotlarni qaytadan ko`rib chiqishi lozim.

Auditor odatda, subyekt raxbariyatining taqdimotlari olinganligi xolatini tasdiqlovchi dalillarni raxba riyat bilan qilingan suxbatlarni qisqa bayon qilish shak lida yoki subyekt raxbariyatining yozma taqdimotlari ko`rinishida ishchi hujjatlarga kiritadi.

Subyekt raxbariyatining yozma ravishdagi taqdimotlari og`zaki tarzdagilardan yaxshiroq dalil hisoblanadi va quyidagi ko`rinishda rasmiylashtirilishi mumkin: subyekt raxbariyatidan yo`llangan xat-taqdimot ko`rinishida; tegishli ravishda subyekt raxbariyati tomonidan tan olingan va tasdiqlangan subyektning taqdimotlari auditor tomonidan tushunganligini bayon qiluvchi auditorning xati; direktorlar kengashi yoki shunga o`xshash idoraning tegishli bayonnomalari yoki imzolangan moliyaviy hisobotning nusxasi.

Agar subyekt rahbariyati auditor kerakli deb hisoblagan taqdimotlarni taqdim etishdan bosh tortsa, bu audit ko`lamini cheklash deb hisoblanadi, va auditor o`z fikrini sharxlar bilan bildirishi yoki fikr bildirishdan voz kechishi lozim. Bunday vaziyatlarda auditor, odatda, audit raytida subyekt raxbariyati tomonidan qilingan boshqa barcha taqdimotlarning ishonchlilik darajasiga baho beradi va auditorlik hisobotiga rad etishning har qanday boshqa natijalarining ta`sirini ko`rib chiqadi.

Auditning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, umumlashtirilgan va baxolangan tekshiruv natijalarini kamida ikkita hujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir:

- 1.Audit xaqidagi shartnomada ko`zda tutilgan davr ichidagi korxonaning moliya-xo`jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o`tkazish to`g`risida hisobot;
- 2.Buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot bo`yicha auditorlik xulosasi.

3. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunida belgilanishicha: auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi qoidabuzarliklar to'g'risidagi mufassal ma'lumotlardan, shuningdek auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida olingan boshqa axborotdan iborat bo'lgan va xo'jalik yurituvchi subyekt raxbariga, mulkdorga, qatnashchilari (aksiyadorlari)ning umumiy yig'ilishiga yo'llangan hujjat<sup>9</sup>.

Auditorlik hisoboti moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o'tkazgan auditor(lar) tomonidan betma-bet imzolanishi lozim. Auditorlik hisoboti auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga, buyurtmachining barcha zarur rekvizitlari ko'rsatilgan xolda jo'natiladi.

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkilotining rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvida qatnashgan boshqa shaxslar xaqida ma'lumotlar, hamda auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining umumiy tavsifi ko'rsatiladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi auditorlik faoliyati milliy standartiga tayanadi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: xo'jalik yurituvchi subyektida ichki nazoratning ahvolini tekshirish natijalari (batafsil bayoni); buxgalteriya hisoboti va moliyaviy hisobotning ahvolini tekshirish natijalari; moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalari; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari; aktivlar (mablag'lar) saqlanishini tekshirish natijalari.

Xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chog'ida qonunchilikka rioya qilinishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining qonunchilikka mos kelishini baholash; xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo'jalik muomalalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish jarayonida aniqlangan

---

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun, (18-modda). 2000 yil 26 may

katta nomuvofiqliklarni bayon qilish.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborotlar quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim: soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzilgan va tegishli organlarga taqdim qilingan hisob-kitoblarning to'g'riligini baxolash; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashning belgilangan tartibini buzish faktlarini, soliqlar tortiladigan bazani aniqlashdagi xatolarni bayon qilish.

Aktivlar saklanishini tekshirish natijalari aktivlarni inventarizatsiya qilishga asoslanishi va ularning xaqiqatda mavjudligi hamda butligi to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga olishi lozim.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismida aniqlangan xato-kamchiliklar va qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha auditorlik tashkilotining tavsiyalari hamda xo'jalik yurituvchi subyektning moliya-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha maslahatlar va takliflari aks ettiriladi.

Auditorlik tekshiruvining natijalari asosida tuzilgan hisobotda korxonada moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijalarining umumiy axvoli, shuningdek buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishning xolati, tahlil ishlarining darajasi hamda korxonadagi hisob-tahlil xodimlarining tavsifi aks ettiriladi. Auditorlik hisoboti ma'lumotlari korxonada bozor sharoitlariga qanday moslashayotganligi va muvaffaqiyatli rivojlanishi hamda foydasini ko'raytira olishga qodirligini yoki aksinchaligini bildirishi lozim. Albatta, tekshirilayotgan korxonadagi ahvol buzib ko'rsatilmagan, auditorga taqdim qilingan axborot xaqiqiy bo'lgandagina extiroslarga berilmagan va real auditorlik hisoboti hamda xulosa shakllanadi. Aks holda, auditorlik tekshiruvini befoyda va uni o'tkazish uchun sarflangan mablag' esa zoe ketadi.

Auditor hisobotda keltirilgan kamchiliklar bo'yicha ularni bartaraf qilishga karatilgan o'z takliflarini xam ko'rsatib o'tishi lozim. Lekin tekshirilayotgan korxonada xodimlariga «yaxshilik» qilish maqsadida auditor shaxsan o'zi dastlabki hujjatlar, hisob registrlari va buxgalteriya hisobotlaridagi xatolarni to'g'rilashi mutlaqo mumkin emas.

Shu bilan birga auditorlarga u yoki bu noxush faktlarni boshqacha qilib yoritishga yoki tekshiruvchilar uchun qulay xulosa tuzib berishga majburlash maqsadida ruhiy, jismoniy yoki boshqacha tazyiqlar o'tkazgan hollarda ular qat'iylik va rrintsiriallik bilan ish tutishlari lozim.

Auditor aniqlangan xato yoki kamchiliklar to'g'risida korxonaga xabar berishga bildiradi va ularni tuzatish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

Agar buxgalterlik (moliyaviy) hisobni yuritish, tegishli hisobotlarni tuzish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar audit o'tkazish chog'ida buyurtmachi korxonaga tomonidan tuzatilmasa, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning ishonchligini tasdiqlash mumkin emasligi to'g'risida auditorlik tekshiruvining xulosasida yoziladi.

Auditorlik xulosasi buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning tarkibiy qismi bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun ushbu hisobot ishonchligi axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar auditorlik xulosasida bayon qilingan fikrga tayanib, auditorga yoki auditorlik firmasiga ishonch bildiradilar. Ushbu ishonch, eng avvalo, auditor tomonidan bajarilgan ishning sifati bilan qo'lga kiritiladi va oqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunida belgilanishicha, auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotning to'g'riligi va buxgalteriya hisobi yuritish tartibining qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi to'g'risida auditorlik tashkilotining fikri yozma shaklda ifodalangan, xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo'lgan hujjat. Auditorlik xulosasi auditorlik hisoboti asosida tuziladi. Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining raxbari tomonidan imzolangan va auditorlik tashkiloti muxri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak (14-modda)<sup>10</sup>.

Auditorlik tashkiloti tomonidan ishlab chiqiladigan auditorlik xulosasini tayyorlash ishlarida auditorlik faoliyatining milliy standartlari (AFMS) qoidalarining talablarini inobatga olish zarur. Auditorlik xulosasini tayyorlashda

---

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonun, (14-modda). 2000 yil 26 may



asosan «Auditorlik hisoboti va moliyaviy hisobot to'g'risida auditorlik xulosasi» nomli 70- sonli auditorlik faoliyati milliy standartidan (AFMS) foydalaniladi.

Audit natijalari korxonadagi jarayonlar va moliya- xo'jalik faoliyati natijalarini tashkil etish va hisobga olishni xolisona aks ettirishi lozim.

Boshqacha qilib aytganda, auditorlik tekshiruvi mumkin qadar ob'ektiv bo'lib, uning xulosasi ma'lum ma'noda xo'jalik yurituvchi subyekt raxbariyati ustidan chiqarilgan «xukm» hisoblanadi.

Shuningdek davlat organlari torshirig'iga binoan o'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha tuzilgan auditorlik xulosasi O'zbekiston Respublikasi protsessual qonunchiligiga muvofiq tayinlangan ekspertiza xulosasiga tenglashtiriladi.

Auditorlik xulosasi uchta: kirish, ta'kidlovchi va yakunlovchi qismdan iborat bo'lishi lozim.

“O'zkommaishiysavdo”OAJ faqat auditorlik xulosasining yakuniy qisminigina manfaatdor shaxslarga taqdim qilishi lozim. Shu munosabat bilan auditorlik xulosasining tahliliy qismi va yakuniy qismi alohida imzolanishi va muxrlanishi mumkin. Auditorlik xulosasining uchta turi mavjud: a) ijobiy auditorlik xulosasi; b) salbiy auditorlik xulosasi; v) xulosa tuzishdan voz kechish.

Ijobiy auditorlik xulosasida buxgalterlik balansi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarining ishonchliligi auditor tomonidan tasdiqlanadi. Qoidaga ko'ra ijobiy auditorlik xulosasi auditorlik tashkiloti xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy xolati va sodir etilgan moliya-xo'jalik muomalalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiqligini ishonarli aks ettiradi degan fikrga kelgan vaqtda tuzilishi lozim.

Salbiy auditorlik xulosasi moliyaviy hisobot korxonaning moliyaviy axvoli to'g'risida ishonarli ma'lumot bermagan va buxgalterlik hisoboti hamda uning moliya-xo'jalik faoliyati hisobi amaldagi me'yoriy qonunchilik talablariga mos kelmagan xolda yuritilgan vaqtda tuziladi. Bunday xato-kamchiliklar o'z vaqtida tuzatilmasa moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itish mumkin.

Salbiy auditorlik xulosasi tuzishga quyidagi muayyan vaziyatlar sabab bo'lishi mumkin: 1) auditor tomonidan aniqlangan buxgalteriya hisobotidagi xato-

kamchiliklar jiddiy va salmoqli bo'lgan xolatlar; ayrim mijoz-korxonalarda bunday xolatlar ularning iqtisodiy nochorligi bilan birgalikda yuzaga kelishi, xatto amal qilayotgan korxonalar prinsipining buzilishiga yetib boradi; 2) moliyaviy hisobotni tasdiqlash uchun zarur bo'lgan dastlabki hujjatlar, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari va hisob registrlari hamda boshqa hujjatlarning katta qismi korxonalar ma'muriyati tomonidan taqdim etilganda; bunda auditorlik tashkiloti vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqqan xolda 70-son AFMSGa muvofiq auditorlik xulosasi tuzishdan voz kechishi xam mumkin.

Salbiy auditorlik xulosasi xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan sodir etilgan moliyaviy va xo'jalik muomalalari moliyaviy hisobotda ishonarli aks ettirilgan, ammo qonunchilikka mos kelmaydigan hollarda xam tuziladi.

Salbiy auditorlik xulosasini tuzishga, qoidaga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tashkiloti tomonidan aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida moliyaviy hisobotga o'zgartishlar kiritish to'g'risida bildirilgan fikrga noroziligi sabab bo'ladi.

Demak, auditorlik tashkilotlari korxonalarda moliyaviy natijalarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazib, unga xulosa berishda ko'pgina meyorlarga amal qiladilar. «Odil-audit» MCHJ moliyaviy natijalari bo'yicha ijobiy auditorlik xulosasiga ega.

## **Xulosa va takliflar**

Iqtisodiyotni erkinlatirishning yana bir o'ziga xos tomoni uni erkinligi va chegarasizligidadir. Ya'ni barcha iqtisodiy subyektlar nafaqat bir davlat hududida, balki xalqaro miqyosda iqtisodiy faoliyat olib borish imkoniyatiga ega. Bunday sharoitda milliy hisob va audit standartlarini xalqaro me'yor hamda talablardan kelib chiqqan holda shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki buning zaminida xo'jalik yurituvchi subyektlarning hamda butun iqtisodiyotning istiqboldagi taraqqiyoti yotadi. Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini hisobi, tahlili va auditiga qaratilgan bo'lib, shu sohaning nazariy hamda uslubiy tomonlarini kengroq yoritish hamda mavjud muammolarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi hamda ushbu taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'lindi:

- moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar guruhini aniq belgilab olish va ularning talablaridan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobotlar tuzilishi va mazmunini qayta ko'rib chiqish zarurati mavjud. Yana shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlar, audit uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu o'z navbatida, moliyaviy hisobotlarning tahlil bop bo'lishini talab etadi;

- iqtisodiyotni barqaror rivojlanishi, yangi sharoitga xos atama va tushunchalarning hayotimizga kirib kelishiga sabab bo'ldi. Bu kabi iqtisodiy atama va tushunchalarning ba'zi adabiyotlarda, o'z mazmunidan kelib chiqmagan holda ishlatilishi, ayrim tushunchalarni noto'g'ri talqin etilishiga sabab bo'lmoqda. Moliyaviy natijalar tahlili va auditida ham uchraydigan shu kabi muammolar aniqlash lozim;

- 9900-«Yakuniy moliyaviy natijalar hisobi» schyotida, hisobot davridagi butun xo'jalik faoliyat natijalari birgalikda aks ettirilgan. Agar bu sohada olib borilayotgan islohotlarning xo'jalik faoliyati turlarini alohida-alohida hamda moddalari bo'yicha batafsilroq ifodalashga qaratilganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, unda 9900-schyot bo'yicha bu ish to'la amalga oshmaganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ya'ni, faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy natijani aniqlash

jarayoni murakkablashgan. Qo`shimcha hisob kitob ishlarini amalga oshirilishini oldini olish maqsadida, 9900-«Yakuniy moliyaviy natija» schyotlari tarkibida, har bir faoliyat turlari bo`yicha moliyaviy natijani ifodalovchi, quyidagi qo`shimcha schyotlar ochilishi taklif etilgan: 9910 - «Asosiy faoliyat bo`yicha moliyaviy natija»; 9920 - «Moliyaviy faoliyat bo`yicha moliyaviy natija»; 9930 - «Umumxo`jalik faoliyat bo`yicha moliyaviy natija». Yakuniy moliyaviy natijalarni ifodalovchi schyotlar tarkibiga, taklifimizga muvofiq o`zgartirish kiritilsa, xo`jalik yurituvchi subyektlarning qaysi faoliyatidan, qanday moliyaviy natijaga erishilayotganligini aniqlashlariga va uni nazorat qilishlariga imkon yaratiladi.

- buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlarga moslashtirish xo`jalik faoliyati auditida ham xalqaro talablardan kelib chiqadigan uslublardan foydalanishni talab etadi. Xo`jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining moliyaviy natijalarini baholash, to`g`ri hisobga olish va audit qilish bilan ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo`lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilganligidir.

Shunday qilib, bitiruv malakaviy ishimizda ko`tarilgan ba`zi muammolar va ularning yechimlari bo`yicha xulosa hamda takliflar tadqiqot ob`ektida moliyaviy natijalar hisobi, tahlili va uning auditini tashkil etishda xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
2. «Buxgalteriya hisob to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996 y, 30 avgust. (O'zgartirishlari bilan)
3. «Auditorlik faoliyati to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 26.05.2000 y.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta'minlash, ularni jadal rivojlantirish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. Xalq so'zi, 2015 yil 16 may, № 98 (6281).
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to'g'risida»gi Nizomi. 54- Qarori. –T.: 1999y.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

6. I.A.Karimov. Bosh maqsadimiz – mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan, olib borayotgan islohotlarni, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka yanada keng yo'l ochib berish hisobidan oldinga yurishdir. “Xalq so'zi” gazetasi, 2016 yil 16 yanvar, № 11 (6446).
7. Каримов И.А. Жаҳон молиявий - иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни баргараф этишнинг йўллари ва чоралари. –Т.: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.
8. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2009. – 176 б.

### **III. Sohaga oid me'yoriy hujjatlar**

9. O'zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobning milliy standartlari, To'plam. T.: ЎzR BAMA nashriyot markazi. 2008.

10. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 491-son bilan ro'yxatdan o'tgan 5-sonli «Asosiy vositalar» BHMS. T.: 23.09.1998y

11. O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMS Schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma. -T.: 2002.

#### **IV. Asosiy adabiyotlar**

12. Jo'raev N., Abduvaxidov F., Sotvoldieva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. – T.: Iqtisod-moliya. 2012 y 481 bet.

13. Jo'raev N., Xolbekov R., Abduvaxidov F., Ixomov I. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy taxhliil va audit. Darslik. -T.: 2007 y.

14. Ibragimov A., Ochilov I., Qo'zиеv I., Rizaev N., Moliyaviy va boshqaruv hisob.O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008 y.

15. Кириллова Н. А., Богаченко В. М. Бухгалтерский учет для вузов : учеб. — 2-е изд., перераб. и доп. - М. : ТК Велби, Проспект, 2008. - 464 с.

16. Кириллова Н.А., Богаченко В.М. Сборник задач по бухгалтерскому учету. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2008. – 346 с.

17. Клокова Н.В. / Под редакцией Крыловой Ю.В. 10 000 проводок. - М.: «Горячая линия бухгалтера», 2007. - 448 с.

18. Ковалев В.В. Как читать баланс. 5-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 672 с.

19. Кожин В.Я. Производство: учет и налоги. – М.: «Альфа - Пресс».- 2007. – 428 с.

20. Куликова Л.И. Учетная политика организации: новое решение. – М.: Бухгалтерский учет, 2010. – 336 с. – 2 экз.

21. Медведев М.Ю. Бухгалтерский словарь. – М.: ТК Велби, Проспект, 2008. – 496 с.

22. Нечитайло А.И. Теория бухгалтерского учета: учеб. – М.: Проспект, 2010. – 272 с.

23. Ўрозов К, Вахидов С.В. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик. -Т.: АДИБ НАШРИЁТИ. 2011 й. 488 б.

24. Тулаходжаева М.М., Илхомов Ш.И., Ахмаджонов К.Б., Файзиев Ш., Ходжаева М.Х., Тулаев М.С. Аудит. Дарслик. -Т.:Норма, 2008. 320 бет.

25. Хасанов Б.А., Хошимов А.А. Бошқарув ҳисоби. Дарслик. -Т.: “Янги нашр», 2011 й, 312 бет.

26. Холбеков Р.О. Бухгалтерия ҳисоби назарияси. Дарслик. -Т.: “Чўлпон” нашриёти. 2011, 200 бет.

27. Швецкая В. М. Теория бухгалтерского учета: Учебник. - 2-е изд. - М.: «Дашков и К», 2007. — 400 с.

28. Швецкая В. М., Головкин Н. А. Бухгалтерский учет: Учебник.- М.: «Дашков и К», 2007. — 512 с.

29. Швецкая В.М., Головкин Н.А. Бухгалтерское дело: Учебник. – М.: «Дашков и К», 2008. – 304 с.

#### **V. Qo'shimcha adabiyotlar**

30. Бреславцева Н.А., Михайлова Н.В., Гончаренко О.Н. Бухгалтерский учет. Учебник. Ростов н/Д: Феликс, 2012, 318 стр.

31. Константинова Е.П. Международные стандарты финансовой отчетности: Учеб. пос.– М.: «Дашков и К», 2008. – 288 с.

32. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет. - М.: ИНФРА. 2008. 273-б.

33. Пахомчик Е.А. Краткий курс по бухгалтерскому управленческому учету. Учеб. пособие. –М., 2007. 40-б.

34. Соколов Я.В. Учет затрат – от теории к практике. // –М. 2009, 47-б.

35. Сотиволдиев А.С. и др. Финансовый и управленческий учет. Учебник. –Т.: «Iqtisod-moliya»/ 2012. 432 с.

36. Фофанов В.А. Учет затрат и калькулирование себестоимости продукции различных отраслей. Учебник. - Гросс Медиа. – М- 2008

37. Бортник Н.А., Бортник Н.Н. Бухгалтерское дело: Учебное пособие. - М.: «Дашков и К», 2008. – 400 с.

38. Ивашкевич В.Б., Куликова Л.И. Бухгалтерское дело: учеб. пособ.- М.: Экономист, 2007.-523 с.

39. Кизилов А.Н. Теория бухгалтерского учета: учеб. пособ.– М.: Эксмо, 2006. – 336 с.
40. Климова М.А. Бухгалтерское дело: Учеб. пособ. – М.: ИНФРА-М, 2008. – 200 с.
41. Киличева Ф. Б. Корпоратив бошқарув тизимида бошқарув ҳисобини такомиллаштириш. –Т.: ЎзР Банк-молия академияси. Ном. дисс. 2009. -120 б.
42. Кондраков Н.П. Бухгалтерский учет: учеб. пособ. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 717 с.
43. Кузьмина М.С. Учет затрат, калькулирование и бюджетирование в отраслях производственной сферы: учеб. пособ.– М.: КНОРУС, 2010. – 248 с.
44. Куликова Л.И. Учетная политика организации: новое решение. – М.: Бухгалтерский учет, 2010. – 336 с.
45. Ложников И.Н. Учет внеоборотных активов. Рекомендовано УМО по образованию в области финансов, учёта и мировой экономики в качестве учебного пособия- М.: «Бухгалтерский учет», -2007. - 130с
46. Медведев М.Ю. Учетная политика организации на 2010 год: практическое пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 248 с.
47. Попова Л.В. и др. Бухгалтерский управленческий учет: нормативная база, тесты, понятийный аппарат: учеб.-метод. пособ. – М.: Дело и Сервис, 2008. – 352 с.
48. Пошерстник Н.В. Бухгалтерский учет на современном предприятии: учеб.-практ. пособ. - М.: Проспект, 2010. – 560 с.
49. Тумасян, Рафаэль Зарзанович. Бухгалтерский учет : учеб.-практ. пособ. - 7-е изд., стер. - М.: Изд. «Омега-Л», 2008.- 794 с.
50. Уткина С.А. Составление бухгалтерских проводок в организациях разных отраслей: практ. пособ. – М.: Омега-Л, 2010. – 259 с.
51. Шевелев А.Е. Риски в бухгалтерском учете: учеб. пособ.- М.: КНОРУС, 2007. – 280 с.



52. Д.А.Сатывалдыева. Ишлаб чиқаришни ташкил этиш ва бошқариш харажатлари ҳисобининг назарий ҳамда услубий асослари. Монография.-Т.: Иқтисодиёт, 2013.-106 бет.

#### **VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar**

53. «Bozor, pul va kredit» jurnal. –Т.: 2014-2015 yillar
54. «Soliq va bojxona xabarлари» gazeta. –Т.: 2014-2015 yillar
- 55.
56. VII. Internet saytlari.
57. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
58. “Norma” 2016.
59. “Pravo” 2016.
60. [Lex.uz](http://Lex.uz).
61. [www.gaap.ru](http://www.gaap.ru)